O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

BO’RIYEV ZAMIR

# A.KAN – YIRIK SKANDINAVCHI OLIM

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko’rildi va himoyaga
ruxsat berildi: “Umumiy tarix”
kafedrasi mudiri
_______ dots. M.M.Hoshimova
“____” ________ 2014 y.

Ilmiy rahbar:
_____ dots.To’raqulov B.T.

SAMARQAND 2014

**Mavzu:A.S. Kanyirikskandinavistolim**

**Reja:**

**Kirish.**

**I.Bob.** A.S. Kanning hayoti va kengijodiy faoliyatining boshlanishi.

**I.1.**A.S. Kanning yoshligi va skandinavist tarixchi bo'lib shakllanishi.

**I.2.**A.S. Kan sovet-nordist tarixchi.

**II.Bob**. Shvesiya tarixini o'rganishda A.S. Kanning qo'shgan hissasi.

**II.1.**A.S. Kan Shvesiyaga ko'chib borgandan keyingi ilmiy faoliyati.

**II.2.**Mashhurshvedlarning A.S. Kan asarlaridagi talqini.

**III.Bob.** A.S.Kan Shimoliy Yevropa davlatlari tarixinining yirik mutaxassisi.

**III.1.**Norvegiya tarixiga doir tadqiqotlari.

**III.2.**A.S. Kan asarlarida Daniya va Finlyandiya tarixining yoritilishi.

**Xulosa.**

**Foydalanilganadabiyotlarro'yxati.**

**Kirish.**

AleksandrSergeyevichKan hozir hayot bo’lgan va sizu bizga zamondosh bo’layotgan yirik tarixchi olim va jamoat arbobi hisoblanadi. Uning shu kunga qadar bo’lgan qariyib 60 yildan ortiqroq ilmiy va ijodiy faoliyati natijasida Yevropaning shimoliy qismida joylashgan Skandinaviya mamlakatlarining yangi va eng yangi zamon davri tarixining o’rganilishiga juda katta hissa qo’shgan olimlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga olimning Skandinaviya mamlakatlari tarixini o’rganishga qo’shgan hissani inobatga olib bugungi kundagi skandinavist tarixchi olimlarning yetakchisi deyishimiz mumkin.

Tarix fani mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyin boshqa sohalarda yuz berayotgan o’zgarishlar va sifat yangilanishlari kabi taboro rivojlanib bormoqda va yurtimiz tarixini o’rganish va umuman tarix fani rivojiga hukumat darajasida etibor qaratilmoqda.

Bu borada prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov ham o’zlarining bir qator chiqishlarida tarix faniga alohida etibor qaratib o’tganlar va quyida ularning ayrimlarini berib o’tishni joiz deb topdik. 1998 yilningavgustoyidaprezidentimizyurtimizningtaniqlitarixchiolimlaribilanuchrashib, undatarixfaniharqandayg’oyalardanvamavkuralardanholibo’lishinitakidlab, uniyoritishdaxolislikkaamalqilishilozimliginiaytibo’tgandivao’uyidagilarnialohidat akidlagan, «Biz tariximizni yoritishda uni davr, muayyan talqin siyosiy guruhlar yoki ayrim shaxslar manfaatiga moslab talqin etishni qoralaymiz. G’oyat murakkab va ziddiyatli tariximizni xolisoni va ilmiy o’rganish – tarixchi olimlarimizning masuliyatli va oliyjanob vazifasi deb hisoblaymiz»[1].

Yuqoridagi fiklarni inobatga olgan holda tariximizni va umuman tarix fanini xolisoni o’rganish barcha tarix fani yo’nalishlari uchun xos va uning natijasida mazkur mavzuning ham yoritilishida olimning barcha ishlarini qamrab olishga imkon tug’iladi.

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. 1998.

Uzoq yillar davomida, aniqrog'i 1987 yilga qadar A.S. Kan Moskvada, sobiq ittifoqda ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan va uning ilmiy asarlari butun sobiq ittifoqdagi barcha 15 ta ittifoqdosh respublikalardagi tarix fakulteti mavjud bo'lgan oliy o'quv yurtlarining talabalari tomonidan o'rganilib kelingan va shu sababli A.S.Kanning shogirdlari yurtimizdagi tarixchi olimlar orasida ham talaygina bo'lishi mumkin.

Sababimalumotlargaasoslanadiganbo'lsakA.S.KanshahrimizSamarqanddaham bo'lgan, shahrimizningengyirikilmdargohibo'lganSamarqandDavlatuniversitetiningmehmonibo'lgan......(Aniqmalumotlarkerak).

Mavzuni yoritishdan ko'zlangan maqsad sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Mustaqillikning qo'lga kiritilishi natijasida O'zbekiston dunyodagi barcha davlatlar bilan teng huquqli aloqalarni yo'lga qo'yish va barcha sohalardagi bo'lgani kabi ilmiy aloqalarni ham rivojlantirish yo'lidan bormoqda. Shimoliy Yevropada joylashgan Skandinaviya davlatlari: Norvegiya, Shvesiya, Finlyandiya va Daniya bilan yurtimizning aloqalari ham mavjud. A.S.Kan asarlarida asosan ana shu to'rt davlatning tarixi yoritilgan.

A.S.Kanning faoliyatini o'rganish bir tomondan uning ilmiy asarlarini o'zbek tilida talim oluvchi talabalarga olimning uzoq va mashaqqatli umri davomida yozgan ilmiy asarlari va maqolalarini yanada yaqinroq tanishtirish bo'lsa, boshqa tomondan olimning yurtimizdagi shogirdlari va do'stlariga hurmat manosida, ularning aloqalarini yanada mustahkamlash yo'lidagi ishlardan va qadamlardan biri sifatida qabul qilinsa o'rinli bo'lardi.

Mazkur mavzuning o'rganilish darajasi haqida gapirilganda, uni umuman o'rganilmagan mavzular sirasiga kiritishimiz mumkin. Sababi garchi jahon tarixining yangi va eng yangi zamon davriga oid fanlarni o'rganish mobaynida talabalar albatta A.S.Kanning Skandinaviya mamlakatlari tarixiga oid asarlariga

ko’p bora murojaat qilishgan va qilishadi. Ammo olimning faoliyati borasida, uning boshqa ilmiy ishlari va ayniqsa 1990 yillardan keyingi faoliyati borasida xech qanday malumotlarga ega bo’lmasliklari mumkin.

AleksandrSergeyevichKanilmiyfaoliyatiningdavslabkivaqtlaridao’ziningkelajakdagianiqmavzusinibelgilabolmaganvashusabablidastlabkipaytlardaskandinaviya mamlakatlariemas, balkiboshqamavzulardahamijodqilganliginiko’rishimizmumkin. Misoluchun 1949 yilda SSSR fanlar Akademiyasining axborotnomasi 45-sonida nashr qilingan va A.S.Kan mualliflgidagi «SvedeniyarusskixobAngliyskoyrevolyusii» (Inglizinqilobihaqidaruslarningmalumotlari)[2]ilmiymaqolasinikeltiribo’tishimizmumkin. Sababiyosholimningdastlabkiilmiyizlanishlaribupaytdayagonabirmavzutanlanmaganligidandalolatberadi.

Mazkur malakaviy bitiruv ishi orqali talabalarga va boshqa qiziquvchilarga A.S.Kan ning ilmiy ishlari va asarlari haqida to’liqroq malumot bermoqchimiz. Yuqorida takidlanganidek mazkur mavzu yuzasidan yurtimiz tarix fanida biror-bir ilmiy ish amalga oshrilmagan va shu sababli mazkur mavzuni umuman o’rganilmagan mavzular sirasiga kiritishimiz mumkin.

Ishni yoritish davomida A.S.Kanning ijod namunalari hisoblangan qator tarixiy asarlari, ilmiy maqolalari, boshqa tirixchi olimlarning asarlariga yozilgan taqrizlari, boshqa tillardan rus tiliga amalga oshirgan tarjimalari, zamonaviy internet saytlaridagi olim va uning ilmiy ishlariga oid malumotlardan foydalaniladi.

[2]Кан А.С. Сведения русских об Английской революции // Известия Академии наук СССР. Сер.истории и философии.- Москва, 1949.- № 45.- с. 464-465.

Ularni ko'rsatib o'tish orqali mavzuning o'rganilish darajasini ham yoritib berishni maqsad qilganmiz. Ishni yoritishda ianiqli olimning bir qator ilmiy ishlarining natijalari bo'lgan kitoblari va ilmiy maqolaridan foydalanildi.

Xususan quyidagilarni ilmiy asarlarini keltirib o'tish mumkin va olimning ijod namunalarining eng yiriklari hisoblangan kitoblaridan, «Noveyshaya istoriya Shvesii»[3].,«Vneshnyaya politika skandinavskix stran v godы vtoroy mirovoy voynы»[4]., «Istoriya skandinavskix stran: (Daniya, Norvegiya, Shvesiya)»[5]., «Istoriya Shvesii»[6]., «Istoriya Norvegii»[7]., «Shvesiya i Rossiya – v proshlom i nastoyashem»[8]., «Znamenitыye shvedы»[9].

Ularda barcha skandinaviya mamlakatlarining va xalqlarining tarixi, o'tmish voqyeliklari, yaqin o'tmishdagi voqyea va xodisalar va bugungi kundagi xolati haqidagi boy malumotlar uzoq yillarning mehnatidir. Olimning birinchi yirik tarixiy asari Shvesiyaning eng yangi zamon davri tarixiga oid bo'lsa, bugungi kunga qadar oxirgi yirik asari hammualliflikda yozilgan mashhur shvedlar haqidagi asar bo'lib, unda mamlakat tarixining turli davrlarida Shvesiya tarixida o'zining ishlari va xizmatlari bilan alohida ajralib turgan shaxslarning hayot yo'llari va qilgan ishlari haqida umumiy malumotlarni keltirib o'tgan.

Mazkur asarlar A.S.Kanning barcha kitoblari bo'lib, ular olim ijodining turli davrlariga tegishli va aytish mumkinki, bu asarlar hajman juda yirik asarlardir. Bunga har bir A.S.Kan ijodidan xabardor kishi misollar keltira oladi.

---

[3]Кан А.С. Новейшая история Швеции. – Москва : Международные отношения, 1964.

[4]Кан А.С. Внешняя политика скандинавских стран в годы второй мировой войны.- Москва: наука, 1967.

[5]Кан А.С. История скандинавских стран : (Дания, Норвегия, Швеция) : учеб.пособие для студентов ист. Специальностей вузов.- Москва : высш.шк., 1971.

[6]Кан А.С. История Швеции. – Москва : Наука, 1974.

[7]Кан А.С. История Норвегии. – Москва : Наука. 1980.

[8]Кан А.С. Швеция и Россия – в прошлом и настояшем.- Москва : Рос. Гос. Гуманит.ун-т, 1999.

[9] Кан.А. и Карлов. С. Знаменитые шведы. - Санкт-Петербург: Европейский Дом, 2009.

Kann ijodida boshqa tarixchilarning ilmiy ishlariga va asarlariga taqrizlar yozish juda katta o'rin egallaydi. Albatta bu xolatni tushunish mumkin, sababi barcha yetuk olimlar kabi A.S.Kan tomonidan taqriz olish har bir jahon tarixi va skandinaviya mamlakatlari tarixi bilan shug'ullanuvchi yosh tarixchilar uchun faxr va tabir joiz bo'lsa bir imtixon kabidir.

Aleksandr Sergeyevich Kanning ijodida katta miqyosli kitoblarning soni kamroq bo'lishi mumkin, ammo uning ilmiy maqolari, taqrizlari va boshqa ishlari har qanday kuchli tarixchi olimning havasini keltira oladi. Fikrimizning isboti sifatida olimning bir qancha ilmiy maqolalarini berib o'tishni lozim topdik. Ularning soni borasidagi malumotlar mavzuning keyingi boblarida ham bir necha marta keltirib o'tilishini ham eslatib o'tishimiz mumkin.

Ilmiy maqolalaridan, «Svedeniya russkix ob Angliykoy revolyusii»[10]., «Daniya: Istoricheskiy ocherk (do 1864 g.)»[11]., «Skandinavskiye stranы v XII-XV vv.»[12]., «Shvesiya : istoricheskiy ocherk (do 1800 g.)»[13]., «Skandinavskiye stranы v XVI- pervoy polovine XVII v»[14]., «Kultura Skandinavskix narodov.»[15]., «Shvedskiye istoriki o Poltavskoy bitve : (obzor istochnikov i literaturы za posledniye polveka)»[16] va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

---

[10]Кан А.С. Сведения русских об Английкой революции // Известия Академии наук СССР. Сер.истории и философии.- Москва, 1949.- № 45

[11]Кан А.С. Дания : Исторический очерк (до 1864 г.) // Большая Советская Энциклопедия.- 2-е изд.- Москва, 1952.- Т.13

[12]Кан А.С. Скандинавские страны в XII-XV вв. // Всемирная история.- Москва, 1957.- Т.3.

[13]Кан А.С. Швеция : исторический очерк (до 1800 г.) // Большая Советская Энциклопедия. 2-е изд.- Москва, 1957.- т.47

[14]Кан А.С. Скандинавские страны в XVI- первой половине XVII в // Всемирная история.- Москва, 1958.- т.4: (1500-1650гг.) / отв.ред. М.М.Смирин

[15]Кан А.С. Культура Скандинавских народов. // Всемирная история. – Москва, 1958.- т. 5: (1650-1800 гг.) / отв.ред. Я.Я.Зутис

[16]Кан А.С. Шведские историки о Полтавской битве : (обзор источников и литературы за последние полвека) // История СССР.- Москва, 1959. -№ 4

Shu bilan birga keyingi yillar davomida Aleksandr Sergeyevich Kanning ko’plab ilmiy maqolalari, tarixchilarning asarlariga taqrizlari va boshqa ilmiy ishlari nashr qilingan.

Ularning ko’pchilik qismi shved tilida bo’lganligi sababli ularning barchasini berib o’tishning imkoni bo’lmadi. Sababi shved tilidan tarjimani amalga oshirish biroz mushkul bo’lganligi sababli olimning asarlarini va maqolalari tarjimasidagi yuz berishi mumkin bo’lgan xatoliklarga yo’l qo’ymaslik uchun faqatgina rus tilidagi asarlari va maqolalariga murojaat qilishni lozim topdik.

Ishning amaliy ahamiyati sifatida quyidagilarni ko’rsatib o’tish mumkin. Avvalo ishning bajarilishi natijasida malakaviy bitiruv ishi darajasida bo’lsada jahonga mashhur olimning faoliyati va uning ilmiy ishlari haqida qisqa bo’lsada malumot beruvchi o’zbek tilidagi malumotlar bazasi yaratiladi. Jahon tarixiga qiziqishi mavjud har bir talaba va boshqa soha kishilar uchun ham dunyoga mashhur olimning hayot yo’li ibratli va qiziqarli bo’lishi tabiiy.

A.S.Kanningijodinivauningasarlarinio’rganishorqalitarixyo’nalishibo’yichimutaxassislashayotgantalabalarningSkandinaviyamamlakatlaritarixigabo’lganqiziqishlarinioshirishvaularningkeyingiilmiyizlanishyo’nalishlariniqatiyravishdabelgilabolishlariuchunyordamvaturtkiberishmumkinbo’lardi.

Uninghayotyo’liesaharbirtarixchiyokibarchasohakishilariuchunibratbo’lishimumkin. Sababiikkinchijahonurushiningishtirokchisi, yuzlabilmiyasarlarvamaqolalarningmuallifi, birnechtaoliyo’quvyurtlariningfaxriyvahaqiqiyprofessorivaengmuhimiminglabshogirdlarningsevimliuztozibo’lishdekbaxtolimningbarchauchunko’rsatishmumkinbo’lganjihatlaridir.

# I. Bob. A.S. Kanning hayoti va kengijodiyfaoliyatiningboshlanishi.

## I.1. A.S. Kanning yoshligi va skandinavist tarixchi bo'lib shakllanishi

Skandinaviya mamalakatlari tarixini yoritilishida ulkan xizmatlar qilgan Aleksandr Sergeyevich Kan 1925 yilning kuzida Moskva shahrida tug'ilgan. Kan o'zining bergan malumotlarida aytilishicha u oilaning yagona farzandi bo'lib, oilada boshqa farzand bo'lmagan va barcha etibor bo'lg'usi yirik tarixchiga qaratilgan[17]. A.S.Kan haqida va uning yoshligi haqidagi malumotlar uning o'zi tomonidan 2009 yilda yozgan maqolasida ham juda kam bo'lib, bu uning kamtarligidan dalolat beradi. Shu bilan birga bo'lg'usi olim oilasining qanday oila ekanligini juda qisqi, ammo juda yaxshi tanishtiradi.

Uning oilasi ziyolilardan iborat bo'lib, otasigermanistolim Sergey Borisovich Kan o'sha davrda, yani o'g'li tug'ilgan vaqtda «Lefortov artilleriya maktabi»dagi yosh tarix fani o'qituvchilaridan biri edi.

---

[17]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

Keyinchalikuningfaoliyatihamgermaniyatarixinikengmiqyosdayoritishuchunamalg aoshirganilmiyishlarisababliboshqatarixchilarsingarimashhurtarixchilardanbirisifati datilgaolinaboshlagan. A.S.Kan otasidan Germaniya va umuman Yevropa davlatlarining tarixiga oid ko'plab qiziqarli malumotlarni yoshlik paytlaridanoq eshitib borgan va natijada uning kelajakdagi yo'lining belgilab olinishiga ham oiladagi muhit sababchi bo'lgan deyish mumkin.

Onasi Roza Aleksandrovna Kan esa o'g'li tug'ilgan paytda vaqtincha ishsiz bo'lgan, ammo undan keyin Moskva Davlat universitening Biologiya fakulteti, «Oliy asab fiziologiyasi» kafedrasida uzoq yillar kafedra o'qituvchisi va kafedra kotibasi sifatida faoliyat olib borgan. Ota va onasining ziyolilar ekanligi va barcha etiborning yolg'iz farzandga qaratilish natijada o'g'ilning talim olishi uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Kan yoshligi haqida malumot berib, otasining doimiy etibori va talabi bilan xorijiy tillarni o'rganishga ko'p vaqt sarflaganligi va natijada uchta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirib, bunda asosiy etiborni shved tiliga qaratganligini takidlab o'tgan[18].

O'rta maktabdagi o'qishini tugatganidan keyin yosh Aleksandr o'qishini davom ettirish uchun o'sha davrda sobiq ittifoqdagi eng nufuzli (bugungi kunda Rossiya Federasiyasida) oliy o'quv yurti hisoblangan Moskva Davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kiradi. Ammo uning talabalik yillari ikkinchi jahon urushi yillariga to'g'ri kelishi natijasida o'qish yillari cho'zilib ketadi. Urush boshlangandan keyin A.S.Kan ham boshqa talabalar kabi frontga jo'nab ketadi va unga bir necha yevropa tillarini bilishi qo'l keladi va tarjimon sifatida faoliyat olib borgan.

A.S. Kan 1944 va 1945 yillarda Birinchi Ukraina frontidagi siyosiy boshqarmada tarjimonlik qiladi[19]. Shu sabab mashhur olim bir vaqtning o'zida ikkinchi jahon urushining qatnashchisi sifatida ham hurmatga sazovor insondir.

---

[18]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[19]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

Urush yillarida tarjimonlik bilan shug'ullanishi uning yoshlik yillari bilan bog'liq bo'lib, u maktab yillarida faqatgina tarix fani bilan jiddiy shug'ullanib qolmasdan tildan ham yaxshigina saboq oladi. MGU dagi talim yillarida dastlab Fransiya va Germaniya tarixi bilan shug'ullanib ko'radi va bir nechta ilmiy maqolalar ham elon qiladi, mazkur davlatlarining tarixiga oid ilmiy ishlarni bajarilishida bevosita ishtirok etadi.

Ammo keyinroq u o'zining kelajakdagi tadqiqot mavzularini ham aniq belgilab oldi va bu Norvegiya hamda Shvesiya davlatlarining umuman Skandinaviya mamlakatlarining tarixini o'rganish yo'nalishlari edi[20]. A.S.Kan urush yillarida ishtirok etganligi sababli ham keyinchalik barcha skandinaviya davlatlarining ikkinchi jahon urushi yillaridagi tashqi siyosatlari haqidagi ilmiy maqolari va kitobini yozgan nashr qildirgan.

1949 yilning bahorida Aleksandr Sergeyevich Kan o'zining diplom ishi sifatida 1654-1655 yillarda bo'lib o'tgan urushni yoritishga xizmat qilgan "Birinchi shimoliy urushning boshlanishi va Shvesiya" mavzusidagi ishni bajaradi. Diplom ishini alo darajada himoya qilgan va Moskva Davlat universitetini imtiyozli diplom bilan tugatgan yosh olim, sobiq SSSR Fanlar Akademiyasi qoshidagi Tarix institutiga sirtqi aspiranturaga qabul qilinadi. O'qish bilan birga Moskvadagi Radiokomitetning xorijiy radio eshittirishlar bo'limida ham faoliyat olib boradi va shu orqali o'zining iqtisodiy zaruratlari uchun doimiy ishga ega bo'lgandi[21].

A.S. Kanning dastlabki ilmiy maqolasi «SvedeniyarusskixobAngliyskoyrevolyusii» nomidanashrqilinga[22].Uningnashr qilinishidan ham bilish mumkinki, A.S.Kan dastlab o'zining ilmiy izlanishlar

---

[20]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[21]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[22]Кан А.С. Сведения русских об Английской революции // Известия Академии наук СССР. Сер.истории и философии.- Москва, 1949.- № 45.- с. 464-465.

yo'nalishi sifatida skandinaviya davlatlarini tanlamagan va bu qiziqish biroz keyinroq vujudga kelgan. Bunga yuqorida keltirib o'tganimiz olimning dastlabki ilmiy maqolasini ko'rsatib o'tamiz.

1953 yildan boshlab soatbay asosida MGUning tarix fakulteti, "O'rta asrlar" kafedrasiga ishga qabul qilinadi va o'zining qiziqishi bo'lgan tarix fani va Skandinaviya davlatlari tarixi bilan to'liq shug'ullanish imkoniga ega bo'ladi. Aynan shu davrdan boshlab uning Skandinaviya davlatlari, ayniqsa Shvesiya va Norvegiya tarixiga oid ilmiy ishlari elon qilina boshladi. 1954 yilning yoz oylaridan A.S.Kan "Voprosы istorii" jurnaliga asosiy shtatga ishga qabul qilinadi. 1957 yildan boshlab MGIMOda Shimoliy Yevropa davlatlari tarixi o'qituvchisi sifatida faoliyat olib bora boshlaydi[23].

Birmuncha keyinroq sobiq SSSR Fanlar akademiyasi Tarix instituti va xalqaro aloqalar va SSSR tashqi siyosati bo'limida kichik ilmiy xodim sifatida ishlay boshlaydi. XX asrning 60-yillarida Aleksandr Sergeyevich Kan allaqachon mamlakatdagi taniqli olimlardan biri sifatida tan olingan bo'lib, uning faoliyatida eng yangi zamon davrini o'rganish alohida ajralib turgan. Shu bilan birga Kan xalqaro munosabatlar tarixi bo'yicha ham yirik mutaxassislardan biri sifatida tan olingan.

Uning dastlabki uchta kitobi oliy o'quv yurtlari uchun darslik bo'lib, ular ham Skandinaviya davlatlarining tarixini yoritishga qaratilgan. Olimning doktorlik dissertasiyasi ham xuddi shunday Skandinaviya mamlakatlarining tarixini yoritib bergan.

1968 yildan boshlab A.S.Kan Umumiy tarix institutida skandinavist tarixchilar guruhiga boshchilik qila boshladi va yillar davomida tarixchi olimlar guruhi Skandinaviya mamalakatlarining turli davrlarga oid tarixiga bag'ishlangan qator ilmiy ishlarni va kitoblarni nashr etishib, o'quvchilarga yetkazib berishadi[24].

---

[23]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[24]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

Natijada skandinaviya davlatlarining tarixi keng miqyosda o'rganila boshladi va keyingi yillarda doimiy ravishda ilmiy izlanishlarning samarasi sifatida maqolalar nashr etib borilgan.

Shu davrda ular xalqaro ilmiy konferensiyalarda Skandinaviya davlatlari va Finlyandiya tarixiga doir ko'plab ishlari bilan ishtirok etishadi va ularning chiqishlari boshqa davlatlarning olimlari va tadqiqotchilari tomonidan ham etirof etilgan. Bunda o'sha yillarda tarixchilar jamoasini boshqargan A.S. Kanning xizmatlari albatta katta bo'lgan.

Aleksandr Sergeyevich Kanning hayot yo'lini haqli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin va bunda 1987 yilga qadar bo'lgan va undan keyingi davrlar. Olimning yirik tarixiy asarlari umrining ko'rsatib o'tilgan birinchi davrida yaratilgan va ularni tarixchi talaba va olimlar ham bugungi kunda o'rganib kelishmoqda.

Misol uchun, 1964 yilda nashr qilingan "Shvesiyaning eng yangi tarixi"[25], 1967 yilda nashr qilingan "Ikkinchi jahon urushi yillarida Skandinaviya davlatlarining tashqi siyosati" [26], 1980 yilda nashr qilingan "Norvegiya tarixi" va "Skandinaviya mamlakatlari tarixi (Daniya, Norvegiya, Shvesiya)"[27] asarlarini ko'rsatish mumkin. Undan tashqari olimning shu yillarda ko'plab ilmiy maqolalari, tarixchi olimlarning asarlariga yozgan taqrizlari va shu kabi boshqa ko'plab ilmiy ishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Aleksandr Sergeyevich Kan talim olish yillarida va keyingi yillardagi ilmiy faoliyati davrida o'z davrida nafaqat sobiq ittifoqda, balki dunyo miqyosida ham yirik tarixchi olimlar sifatida etirof etiladigan Ye.M.Jukov, B.F.Porshnev, S.D.Skazkin, Ye.B.Chernyak va boshqa tarixchi olimlar bilan birga faoliyat olib

---

[25] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[26] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[27] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

bordi yoki ulardan ko'plab narsalarni o'rgandi[28]. Buning natijasida olimning ilmiy salohiyati doimiy ravishda ortib borgan deyishimiz mumkin.

Ayniqsa A.S.Kanning ilmiy maqolari sobiq ittifoqning tarix fani bo'yicha eng nufuzli jurnallaridan bo'lgan "Novaya i noveyshaya istoriya" (Yangi va eng yangi tarix), "Voprosы istorii", "Istoriya SSSR" (SSSR tarixi), "Otechestvennaya istoriya" (Vatan tarixi), "Mejdunarodnaya jizn" (Xalqaro hayot), "Istoricheskiy arxiv" (Tarixiy arxiv), "Klio", "Mirovaya ekonomika i mejduradnыye otnosheniya" (Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar), "Izvestiya Akademii nauk SSSR" (SSSR fanlar Akademiyasi axborotnomasi), va "Sredniye veka" (O'rta asrlar) to'plami kabilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Undan tashqari Tallin shahrida nashr qilib borilgan "Skandinavskiy sbornik" (Skandinaviya to'plami)[29] da ham uning ko'plab ilmiy maqolalari doimiy ravishda elon qilib turilgan. Tallin shahridagi mazkur nashr keyingi yillarda ham A.S.Kan bilan doimiy ravishda hamkorlik qilib bormoqda.

Olimning sobiq ittifoqdagi oxirgi yillari 1987 yilga to'g'ri keladi va shu sababli uning shu yilda amalga oshirgan bir necha ilmiy ishlari bilan tanishtirib o'tishimiz kerak. 1987 yilda A.S.Kan Moskvada nashr qilingan va M.A.Barg tomonidan yozilgan "Epoxi i idei: Stanovleniye istorizma" (Davrlar va g'oyalar: tarixiylikning paydo bo'lishi) asariga taqriz yozadi[30].

O'zining oxirgi yigirma yillik faoliyati davomida, bu ko'proq Shvesiyaga ko'chib ketgandan keyingi davr bo'lib, bunda olim "Severnaya Yevropa" (Shimoliy Yevropa) jurnalining nashr qilinishiga rahbarlik qilib kelmoqda va olimning ilmiy maqolalari ko'proq shu jurnalda elon qilib borilmoqda. Uning keyingi yillardagi ilmiy va amaliy faoliyatiga oid malumotlarni ishning navbatdagi

[28]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[29]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[30]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

bob va paragraflarida berib o'tilishini inobatga olib, A.S. Kanning faoliyatiga oid malumotlarning 1987 yilgacha bo'lgan qismini berib o'tishni lozim topdik.

## I.2. A.S. Kan sovet-nordist tarixchisi

NordistikaaslidaShimoliyYevropadavlatlaritarixinio'rganishyo'nalishibo'lib, uningalohidarivojlanishishusohadaijodqiluvchiolimlarningmehnatlarievazigaamalg aoshibkelganvakelmoqda.

ShularjumlasigaAleksandrSergeyevichKannihamkiritishginaemas, balkiularningbugungikundagiyetakchisisifatidako'rsatishmumkin. Sababideyarli 65 yildanbuyonolimasosanskandinaviyadavlatlaritarixibilan, tabirjoiznordistikabilanshug'ullanibkelmoqda.

ShimoliyYevropadavlatlaritariximintaqaningboshqadavlatlariganisbatantarixiyrivojlanishjarayoningbirozkechroqboshlanganligibilanxarakterlanadi. MisoluchunYevropadavlatlarifeodaljamiyatgao'tgandankeyinbirnechayuzyilo'tibbujarayonskandinaviyadavlatlariyokiShimoliyYevropadaboshlangan.

Bugungikundahamshusohadailmiyfaoliyatolibborayotganko'plabolimlarniko'rsatibo'tishmumkin. UlarningyetakchisiAleksandrSergeyevichKanbo'lsa, uningishinidavomchilarisifatidanordistikasohasidaisholibborayotganM.A.Mogunova, KimmoRenolta,A.A.Komarov, OlgaVasilyevnaChernыsheva, GunnarLassinantti, K.V.Vaxrusheva, A.N. Pavlova, M.A.Timofeyeva, R.V.Peresadilo, A.V.Bespalov, I.A.Garsev, A.A. Svanidze, A.D. Щyeglov, N.S.Plevako, V.V.Roginskiy, D.V.Nilov, T.A. Salыchev[31]vaboshqabirqatoryosholimlarvatadqiqotchilarningnomlarinikeltiribo'tishimizmumkin.

Mavzuni yoritish davomida A.S.Kanning ko'plab asarlari va ilmiy maqolalariga murojaat qilishimiz va ularning barchasida olimning asarlarida skandinaviya davlatlari tarixining yoritilishiga etibor qaratamiz bu aynan bir narsaning takrorlanib qolmasligi uchun boshqa malumotlarni keltirib o'tamiz.

Shu o'rinda uzoq yilardan buyon tashkil qilib kelinayotgan nordist olimlarning ilmiy va amaliy mazmundagi xalqaro konferensiyalarinng byuar nechtasini ko'rsatib o'tish o'rinli bo'lardi. Sababi ularning barchasida mavzumizning mazmuni bo'lgan A.S.Kanning ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Rossiyada tashkil qilinayotgan nordistlarning xalqaro konferensiyalarida A.S.Kan 1993 yildan buyon ishtirok etib kelmoqda va ular quyidagilar:1993

[31]http://norse.ulver.com

yildabo'libo'tgan«Emigrasiya: finnы vRossii, russkiyevFinlyandii» mavzusidagixalqaroseminarva «TriputirazvitiyaSevernыxrespublik. Finlyandiya, Kareliya i Komi kray v 1917-1940 gg.» mavzusidagi xalqaro ilmiy simpozium[32].

1994 yilda bo'lgan «Istoricheskiye svyazi Belomorskoy Karelii i Severnoy Finlyandii» mavzusidagi xalqaro seminar[33].

1995 yilda bo'lgan «Nasionalnыye menshinstva i nasionalnaya politika VKP(b) na Severo-Zapade Rossii (1920-40-ye gg.)» mavzusidagi halqaro seminar[34].

1997 yilda bo'lgan «Sennosti, normы i izmeneniya v sovetskom obщyestve 1920-1950-x godov» i «Dvuglavыy orel i krasnaya zvezda: preyemstvennost i razrыv v gosudarstvennom stroitelstve SSSR (1918-1953 gg.)» mavzusidagi xalqaro loyiha doirasidagi ilmiy seminar, «izucheniyu istorii, ekonomiki, literaturы i yazыka skandinavskix stran i Finlyandii» mavzusidagi XIII xalqaro konferensiya[35].

1998 yilda bo'lgan «Kareliya i Finlyandiya na poroge novogo tыsyacheletiya» mavzusidagi xalqaro simpozium va «Vostochnaya Finlyandiya i Oloneskaya Kareliya» mavzusidagi tarixchilarning xalqaro seminari[36].

2000 yilda bo'lib o'tgan «Mejdunarodnыye otnosheniya na severe Yevropы: tradisii i sovremennost» mavzusidagmi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya[37].

2001 yilda bo'lgan «K.G.E. Mannergeym i yego vremya» mavzusidagi kitob va foto xujjatlar ko'rgazmasi va «Obraz Finlyandii v Rossii, obraz Rossii v Finlyandii» mavzusidagi ilmiy seminar va xalqaro tadqiqot loyihasi[38].

2002 yilda bo'lgan «Finnы v Sankt-Peterburge» mavzusidagi kitoblar va foto xujjatlar ko'rgazmasi[39].

---

[32]http://cyberleninka.ru

[33]http://norse.ulver.com
[34]http://norse.ulver.com
[35]http://norse.ulver.com
[36]http://cyberleninka.ru
[37]http://cyberleninka.ru
[38]http://norse.ulver.com
[39]http://norse.ulver.com

2004 yilda tashkil qilingan «Pisma iz Karelii» nomli Kanada Kino akademiyasining xujjatli filmining taqdimoti[40].

2005 yilda bo’lgan «Otechestvennaya nordistika: tradisii, innovasii, perspektivы» mavzusida o’tkazilgan III hududiy ilmiy-amaliy konferensiya doirasidagi davra stoli va «Vostochnaya Finlyandiya i Rossiyskaya Kareliya: tradisiya i zakon v jizni karelov» mavzusidagi xalqaro seminar[41].

2007 yilda o’tkazilgan «Otechestvennaya nordistika: tradisii, innovasii, perspektivы» mavzusida IV hududiy ilmiy-amaliy konferensiya,«Grani sotrudnichestva» mavzusida o’tkazilgan xalqaro ilmiy seminar[42].

2008 yilda tashkil qilingan «NorthAmericanFinnsinSovietKareliain 1930s» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya va «Istoriya Yevropeyskogo Severa Rossii» mavzusidagi Rossiya-Germaniya talabalarning ilmiy seminari[43].

2009 yilda bo’lib o’tgan «Rossiya i Finlyandiya v mnogopolyarnom mire: 1809-2009» mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya[44].

2010 yilda tashkil qilingan «Otechestvennaya nordistika: tradisii, innovasii, perspektivы» mavzusida tashkil qilingan V hududiy ilmiy-amaliy konferensiya[45].

2012 yilda bo’lib o’tgan «Amerikanskiye finnы v dovoyennoy Karelii» mavzusidagi xalqaro notiqlarning seminari, «Grani sotrudnichestva: Rossiya i Severnaya Yevropa» mavzusida o’tkazilgan xalqaro yubeley ilmiy seminar[46] va boshqalarni ko’rsatib o’tish mumkin. Ularning barchasida Aleksandr Sergeyevich Kan o’zining maruzalari va ilmiy maqolalari bilan ishtirok etgan. Ularning barchasini to’liq ravishda ko’rsatishning imkoni yo’q bo’lib, yuqorida ko’rsatib o’tganimiz ilmiy konferensiya, seminarlar, davra suhbatlardan tashqari yana ko’plab xalqaro ilmiy konferensiyalar boshqa davlatlarda ham tashkil qilingan, ammo ularning barchasini mazkur ищda to’liq ravishda yoritib berishning imkoni

[40]http://norse.ulver.com
[41]http://norse.ulver.com
[42]http://cyberleninka.ru
[43]http://cyberleninka.ru
[44]http://cyberleninka.ru
[45]http://cyberleninka.ru
[46]http://cyberleninka.ru

yetarli emas.

## II. Bob. Shvesiyatarixinio'rganishgaA.S. Kanningqo'shganhissasi.

### II.1. A.S. KanShvesiyagako'chibborgandankeyingiilmiyfaoliyati.

1987 yilda A.S. Kanning oilasi sobiq SSSR dan chiqib ketdiva olim o'z oilasi bilan birga Shvesiyaga ko'chib ketadi[47]. Aynan shu yildan boshlab A.S. Kan hayotining alohida boshqa yangi davri boshlanadi. Olimning keyingi faoliyati esa Skandinaviya davlatlari hisoblangan Shvesiya va Norvegiyada o'tmoqda. Dastlabki paytlarda sobiq ittifoqdan ko'chib ketish uning faoliyatiga salbiy tasir etgan. Buni shu davrda uning ilmiy faoliyatidagi biroz bo'lsada yuz bergan to'xtalish bilan izohlash mumkin.

A.S. Kanning Shvesiyadagi hayoti va Upsala Universitetidagi faoliyati olimning hayotidagi yangi davr edi. Bu vaqtda sobiq ittifoqda tartibsizliklar boshlanib, sobiq SSSRning parchalanish jarayoni boshlanib ketgandi. Natijada ilmiy faoliyat olib borish birmuncha cheklanishi bilan birga davlat tomonidan ilmiy faoliyatga ajratiladigan mablag'lar miqdori ham kamayib ketishi tabiiy hol edi. Undan tashqari qaysi davlatda yashash va qaysi davlatning fuqoroligida bo'lish bu A.S. Kan va uning oilasining huquqi edi.

[47]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

Shvesiyaga ko'chib kelgandan keyin Kan oilasi bilan Upsala shahriga joylashadi va 1988 yildan boshlab shu shahardagi Upsala Universitetning professori sifatida faoliyat olib bora boshlayd[48]. Tarixchining keyingi hayoti va ijodi endi Upsala universiteti bilan chambarchas bog'lanib qoladi. Mazkur universitetdagi faoliyat bilan birga olim Oslo (Norvegiya) Universiteti bilan ham aloqalarni olib borish bilan birga, unda hamkor sifatida faoliyat olib boradi. A.S.Kan hayotida va ilmiy ishlarida har doim turmush o'rtog'i Adelaida Grigoryevna Kruglyakning o'rni katta bo'lgan.

Bir necha yil davomida olimga Rossiyaga kelish va oliy o'quv yurtlarida maruzalar o'qishi uchun ruxsat berilmagan. Faqatgina 1990 yillarning o'rtalaridan boshlab A.S.Kanga yana Rossiyaning yirik oliy o'quv yurtlarida bo'lib o'tayotgan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish uchun ruxsat berildi va natijada olim qisqa muddat ichida Moskva, Peterburg, Arxangelsk va boshqa shaharlardagi xalqaro konferensiyalarda o'zining maruzalari bilan ishtirok etish bilan birga bir qancha oliy o'quv yurtlarida vaqti-vaqti bilan Skandinaviya mamlakatlari va Shimoliy Yevropa davlatlari tarixi bo'yicha maruzalar qila boshladi[49].

A.S. Kan faoliyatining mana shu davrida, aniqrog'i XX asrning 90-yillarida yanada faollashadi. Sababi sobiq ittifoq parchalangandan keyin olimning Rossiyaga borishi uchun ayrim to'siqlar mavjud edi. Bu esa uning tug'ilib o'sgan yurtiga borishini cheklab qo'yadi. Bu esa uning ilmiy faoliyatiga ham malum darajada tasir qilgan. Rossiya va uning oliy o'quv yurtlarida maruza o'qish imkoniyatining paydo bo'lishi katta avlod olimlarining yosh avlod olimlari bilan uchrashishini yanada faollashtirdi.

DastlabA.S. Kan 1994 yilning noyabr oyi o'rtalarida Arxangelskka kelib, tarix fakulteti talabalariga Norvegiya tarixi bo'yicha maxsus kursdan maruzalar o'qiydi. 2001 yilning sentyabrida A.S.Kan turmush o'rtog'i Adelaida Grigoryevna

---

[48]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[49]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

Kruglyak bilan yana Arxangelskka kelishadi va shu yerdagi PDU (Pomorsk Davlat universiteti), Rossiyadagi yosh skandinavist olimlar uchun maxsus maruzalar o'qiy boshlaydi[50].

Shu bilan birga Skandinaviya mamlakatlari va Finlyandiya tarixini o'rganish bo'yicha XIV konferensiyanitayyorlashvaundakattachiqishqilishishlariniham olib boradi. Uning maruzasi "Sovet va postsovet davrida tarixiy nordistika: dastlabki xulosalar" mavzusida bo'lib, shu davrdan boshlab Kan Arxangelskdagi yosh skandinavist olimlarni boshqarib kelmoqda. Undan tashqari Kan shu yerda 2-5-kurs talabalari uchun 400-soatlik maxsus kursni aynan Skandinaviya mamlakatlari bo'yicha tayyorlab berdi[51].

2001, 2005 va 2008 yillarda A.S.Kan Pomorsk Davlat universitetida Skandinaviya mamlakatlari tarixi bo'yicha maruzalarni amalga oshirdi. Bu esa shu uyeiversitetdagi talabalar va yosh olimlar uchun o'ziga xos ilmiy maktab vazifasini bajardi[52].

Yuqorida takidlaganimizdek A.S.Kan o'zining eng yirik asarlarini 1987 yilga qadar bo'lgan birinchi davrida yaratgan bo'lsa, undan keyingi davrlarda ham uning ilmiy faoliyati juda sermazmun o'tgan deyishga asosimiz yetarli. Uning ilmiy faoliyati va salohiyatini inobatga olib, 1988 yilda Aleksandr Sergeyevich Kan Norvegiya Fanlar Akademiyasiga qabul qilinadi. Shu yilning o'zida A.S.Kan Shvesiyaning qadimgi va haqiqiy tarixi Akademiyasining muxbir azosi sifatida qabul qilindi. 1992 yildan boshlab A.S. Kan Akademiyaga shved olimi sifatida yana qayta qabul qilindi[53].

---

[50] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[51] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[52] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

[53] Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

1990 yilda Adolf Gustav nomidagi Shvesiya Xalq madaniyati Akademiyasi azoligiga qabul qilindi. Bu esa olimning uzoq yillar davomida amalga oshirgan ilmiy faoliyatining natijasi sifatida baholanadi. Agarda bugungi kunga qadar bo'lgan ishlarni inobatga olsak, Aleksandr Sergeyevich Kan 60 yildan ortiqroq vaqtdan buyon Skandinaviya mamlakatlari tarixi bilan shug'ullanib kelmoqda.

2008 yildan boshlab A.S.Kan o'z oila azolari bilan birga Stokgolmda yashay boshlashgan. Keyingi yillarda taniqli tarixchi olim A.S.Kan o'zining faoliyatida o'qituvchilik bilan shug'ullanmaydi va bu albatta yosh bilan bogliq bo'lib, 80 yoshdan oshgan olim uchun juda qiyin holatdir. Ammo shunga qaramay olim doimo yosh tadqiqotchilar uchun sevimli ustoz va tajribali maslahatchi hisoblanadi.

U ilmiy faoliyati davomida bir qator yirik ilmiy asarlarni yaratdiki, natijada hanuz olimning yaratgan asarlari sobiq ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlarda, boshqa qo'shni davlatlarda va dunyoning ko'pgina davlatlaridagi tarixchilar tomonidan keng miqyosda foydalanib kelishmoqda.

A.S.Kan talim olgan va Moskvadagi hayoti davrida va umuman sobiq ittifoqda rus tilidan boshqa tillarni o'rganishga etibor birmuncha kam bo'lgan yoki yoshlarning chet tillarini bilishlari hozirgi kundagi kabi kuchli talab qilinmagan. Bugungi kunda yurtimizda va boshqa mamlakatlarda ham chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va talab ham ortib bormoqda, shunday ekan ko'plab yoshlar biror-bir skandinav tilini ham o'rganishmoqda, bu esa ularga A.S.Kan asarlarini va uning ilmiy maqolalarini shu tilning o'zida o'rganish imkonini beradi. Shu orqali talabalar A.S.Kan asarlarining aynan keyingi yillardagi nashrlarini o'rganish imkoniga ega bo'lishadi.

Oxirgi yillarda A.S.Kan o'zining ilmiy izlanishlarida Skandinaviya mamlakatlarining Rossiya imperiyasi, sobiq SSSR va Rossiya Federasiyasi bilan o'zaro aloqalari mavzusiga oid malumotlarni ko'proq yoritishga harakat qilmoqda. Mazkur aloqalar asosan yangi va eng yangi zamon davridagi aloqalarga

bag'ishlangan[54]. Uning ilmiy izlanishlari keyingi to'rt- besh asrni o'z ichiga olishi natijasida A.S.Kan ijodiga va ilmiy asarlariga qiziqishni yanada oshirish bilan birga o'quvchilarining auditoriyais ham doimiy ravishda kengayib borishini taminlamoqda.

Jahondagi tarixchilar tomonidan Aleksandr Sergeyeviya Kanga nisbatan "Ensiklopedist tarixchi olim" atamasi ham ishlatilmoqda. Albatta mazkur nom olim uchun haqli ravishda berilgan. Sababi sobiq ittifoqda nashr qilingan juda yirik hajmda bajarilgan "Bolshaya Sovetskaya Ensiklopediya" (Katta Sovet ensiklopediyasi), Ye.M.Jukov tahriri ostida nashr qilingan "Vsemirnaya istoriya" (Butun dunyo tarixi) kabi ko'p tomli kitoblarning yozilishida Aleksandr Sergeyevich Kan ham o'zining ko'plab ilmiy ishlari va maqolalari bilan ishtirok etgan[55]. Uning yirik ilmiy ishlardagi ishtiroki masalasiga oib malumotlar ishning keyingi boblarida kengroq berib o'tiladi. Bu esa unga nisbatan ishlatilgan tariflarning qay darajada to'g'ri ekanligini isbotlaydi.

2011 yilning dekabr oyida A.S.Kan asarlarining to'liq ro'yxati nashr qilindi va undagi malumotlarda Kan tomonidan yaratilgan barcha ilmiy ishlar ro'yxati 580 tani tashkil qilgan[56]. Bu raqamlar yirik olimlar uchun ham juda katta raqamni tashkil qiladi. Ularning orasida turli tillardan amalga oshirilgan tarjimalar va turli tillarda yaratilgan ilmiy ishlar mavjud.

XX asroxiriva XXI asrboshlaridaA.S. KanningShvesiyatarixigaoidilmiymaqolalari, ishlarivaresenziyalariko'plabmiqdordanashrqilingan. Ularningko'pchilikqismishvedvarustillaridabo'lib, ularning barchasiga alohida holda to'xtalib o'tish uchun shu tillardagi mutaxassislarga murojaat qilish zarur.

[54]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118
[55]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118
[56]Александр Сергеевич Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

XX asroxiriva  XXI asrboshlaridagi ilmiy faoliyatiga to’xtalishning xronologik ramkasi sifatida 1987 yildan keyingi davrni olish o’rinli bo’lardi. Sababi esa shu yildan boshlab A.S. Kanning faoliyatida o’zgarish yuz berganligida.

Aleksandr Sergeyevich Kanning ijodi va XX asrning oxiri XXI asr boshlaridagi faoliyati juda serqirra. Shu bilan birga mazkur davrda olimning ilmiy ishlari va maqolalari asosan shved tilida nashr qilib borilmoqda. Bu esa rus tilida o’qiydigan talabalar va skandinaviya mamlakatlari tarixi bilan shug’ullanuvchi kishilarning  oldiga bir qancha to’siqlarni keltirib chiqarmoqda.

## II.2. MashhurshvedlarningA.S. Kanasarlaridagitalqini

A.S.Kan o'zining bir qator asarlarida Shvesiyaning o'tmishdagi mashhur kishilarining faoliyatini yoritib bergan va bunda barcha soha kishilarini tilga olishga harakat qilgan. Ularning orasida hukmdorlar, sarkardalar, ilm-fan va madaniyat nomoyondalarini ham uchratishimiz mumkin. Mazkur paragrafda mashhur skandinavist tarixchi tomonidan malumot berib o'tilgan tarixiy shaxslarning faoliyatiga oid malumotlarni qisqacha bo'lsada berib o'tishni lozim topdik.

**OlausPetri** (1493-1552) o'rta asrlar va yangi zamon davri oralig'ida yashagan bu shaxs  Shvesiyadagi reformasiyaning yirik vakillaridan biridir. Uning yashagan davrida Shvesiya va Daniya bir uniyaga birlashgan bo'lib, yosh dvoryan Gustav Vaza Shvesiyaning alohida mustaqil qirollik sifatida mavjud bo'lishi uchun kurash olib borayotgan tarixiy jihatdan murakkab davr edi[57]. Malumki Yevropadagi reformasion jarayonlar Germaniyada Martin Lyuterning chiqishlaridan keyin boshlanib ketganda va tabiiyki, uning tasiri Shvesiyaga ham bo'lgan. 1520 yilda Daniya qiroli Shvesiya bilan uniyani yanada mustahkamlamoqchi bo'ladi va unga qarshi 1521 yilda qo'zg'olon boshlanib ketadi. Unga boshchilik qilgan Gustav Vaza 1523 yilning 6 iyunida Shvesiya qiroli deb elon qilinadi[58]. Daniyaga qarshi kurashlar natijasida yangi qirol juda ham pulga muhtoj bo'lgan va shu sababli uning cherkov bilan munosabatlari buziladi. Aynan mana shu sharoitda Olaus Petri tarix sahnasiga chiqadi. Aslida Olaus Petri haqidagi malumotlar juda kam bo'lib, yoshligi haqida faqatgina shaharlik temirchi oilasida tug'ilganligi aytilgan[59].

---

[57] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с.7.

[58] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009.  с. 9.

[59] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009.  с. 10.

Olaus kelajakda ruxoniy bo'lish yo'lini tanlaydi. Dastlab u o'sha davr anansiga muvofiq lotincha ism olishi kerak edi va shu sababli shvedcha Petersson ismini Petri deb o'zgartiradi[60]. Olaus talim olishni dastlab Strengnes shahrida keyinroq Upsala shahrida oladi. 1516 yilda Germaniyaning Vittenberg universitetida o'qishini davom ettiradi. U professor Martin Lyuterning muxlislaridan biri edi va uning vazlarini doimiy ravishda tinglab borardi. 1518 yildja u Shvesiyaga qaytadi. Germaniya o'qib, magistr darajasini olganligi sababli unga "ustoz Ulof" deb murojaat qilishgan[61]. Keyinroq u o'zi tug'ilgan shaharda bolalarni o'qitgan va Shvesiya mustaqil qirolikka aylangach, Olausning cherkovdagi o'rni va tasiri ham ortib borgan. Yangi qirol Shvesiyadagi cherkovga soliq solish bilan birga ko'plab aholining noroziligiga ham sabab bo'ladi. Olaus shahardagi kengash kotibi, burgomistr va kengash yordamchisi sifatida faoliyat olib borgan va shu davrda uning xalq orasidagi obro'si ortib borgan[62].

Keyinroq Olaus Stokgolmga keladi va shu yerda Martin Lyuter talimotini tarqata boshlagan. 1526 yilada Olaus Petri va Andrelar Lyuter tomonidan injilning lotin va grek tillaridagi nusxalaridan nemischa tarjimani amalga oshirishgach, ular ham shu yili injilni shved tiliga tarjima qildilar[63]. Mazkur asarning shved tilidagi tarjimasining paydo bo'lishi Rimda norozilikni keltirib chiqardi va natijada uning tarjimonlariga jiddiy xavf paydo bo'ladi. Katolik cherkoviga qarshi chiqish bilan birga 1528 yilda u turmush qurish orqali cherkov tomonidan taqiqlab kelingan tartiblardan birini buzadi. 1526 yildan 1530 yillar davomida Petri Olaus bir nechta asarlar va pamfletlarni yozib, ularni Stokgolmda elon qiladi[64]. Natijada uning obro'si faqatgina shaharda emas, balki mamlakat miqyosida ham ortib borgan.

Petri Olaus bir vaqtning o'zida tarixchilik faoliyati bilan ham mashg'ul bo'lgan.Misol uchun u tomonidan Shvesiyaning qadimgi davridan to o'zi yashagan

---

[60] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с. 10.

[61]Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с. 10.

[62] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с. 12.

[63] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с. 13.

[64] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. с. 13.

davrigacha bo’lgan tarixini yoritib bergan.Shu sabali uning mamlakatning tarixida tutgan o’rnini tarixchilar yuqori baholashadi.

Shvesiyaning mashhur kishilaridan yana biri mamlakatning qiroli **Gustav II Adolf** (1594-1632) bo’lib, uning faoliyati shvedlarning Yevropa miqyosida ham qudratli davlat tuzishlari uchun asos bo’lib xizmat qilgan. Dastlab faoliyatini sarkardalikdan boshlagan bu shaxs mamlakatning qiroli darajasiga qadar chiqadi. Olimlardan biri uning xizmatlari faqatgina kuchli shved armiyasini tuzganida emas, balki uning faoliyai natijasida Shvesiyaning ilm-fani va madaniyati ham yuksaldi degan. Shved tarixchisi Geyer o’zining asarlarida «Shvesiya tarixida uning qirollari ham o’z tarixiga ega»[65] degan so’zlarni aytib o’tgan.

Malumotlarga ko’ra mamlakatning tarixida sarkardaliklan qirol darajasiga qadar yetgan to’rt kishi o’tgan bo’lib, ulardan uch nafari 40 yoshga ham bormagan, shularning qatorida GustavII Adolfni ham ko’rsatish mumkin. Sababi u 38 yil yashagan.XVI asrning o’rtalarida Shvesiyaning mavqyei Yevropa miqyosida anchagina past edi. Buning asaosiy sababi sifatida uzoq davr mobaynida Daniya bilan bir uniya tarkibida bo’lib va uning tasirida qolib ketishi bo’lgan. Gustav II Adolf o’zining hukmronligi yillarida 4 tabaqadan iborat rigstagni doimiy ravishda faoliyat ko’rsatuvchi parlamentga aylantirdi.Avvalgi davrdagi harbiy tartiblarni o’zgartirib, barcha erkak aholini harbiy xizmatga jalb qilib, rekrutga asoslangan tartibni joriy qiladi[66].Bunga qadar Shvesiyaning mavqyei yuqorida aytilganidek past edi. Mamlakat Yevropada asosiy mis eksport qiluvchi va emmigrantlarni qabul qiluvchi davlat sifatida malum bo’lgan. Aynan mana shu xizmatlariga ko’ra 1632 yilda qirolning vafotidan keyin uni Shvesiyaning eng buyuk qirollaridan biri sifatida ko’rsata boshlaganlar[67].

Bo’lg’usi qirol Gustav II Adolf tug’ulganida uning otasi 45 yoshda edi va u qirol Gustav Vazaning nabirasi bo’lgan. Gustav II Adolf yoshligidi juda yaxshi

[65] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 22.

[66] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 23

[67] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С .24.

talim olgan, lotin va asosiysi nemis tillarini mukammal egallagan. Keyinroq golland va fransuz tillarini ham o'zlashtirgan. Hatto polyak va rus tillarini ham qisman o'rganib, ularni bemalol tushungan[68].

1611 yildaotasivafotetganidankeyinyangiqirolningyoshligisababliboshqaruvdavlatkengashigatopshirildivaunibaronAkselboshqargan. Tarixchilarningo'shapaytdagimalumotlarigako'raGustav II Adolfjudanozikdidlikishibo'lib, ungasaroylarninggo'zalligivahattojudayaxshibezatilgandasturxonvamazalitaomhamilhombag'ishlaganvakayfiyatiniko'targan[69].

Yoshligidanharbiyishbilanjiddiyshug'ullanganqirolgako'proqrazvedkagaborishnixushko'rganvahattobirsafaro'zirazvedkagaborib, nemislargaasirtushibqolishgaozqolgan. Janglardaesaaskarlarnio'ziboshqaribjanggaolibkirganvaaskarlartomonidanbo'ladiganetirozlarga «qachonki, xudohohlasaginao'laman» debjavobbergan[70].

Ujudaserqirraodambo'lib, rigstagningdeputatlaribilantez-tezsuhbatlashibturganvaularorqaliko'plabmuammolimasalalarniyechishgaharakatqilgan. Rigstagvaboshqayerlardichiqishqilishlozimbo'lsauningo'zigapirarvaimkonko'proqgapirishgaharakatqilgan. Taxtgachiqqandankeyinyirikshaharlarningbarchasidao'rtamaktablarvagimnaziyalartashkilqiladivahattoDerpteyokiTartushahridauniversitethamochishgaboshchilikqiladi[71].

Gustav II Adolfarmiyaniqaytatashkilqilarekanaskarlarnierkindehqonlardanolishgaalohidaetiborqaratdi. Dalapolklariningaskarlarinisoninikamaytirib,

---

[68] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 25.

[69] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 25.

[70] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 26.

[71] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 28

barchaaskarlarbirbirinitanishitalabqilinganvabundanko'zlanganmaqsadpolkichigab oshqadavlatlarningyollanmaaskarlariningkiribolishlarinito'xtatishbo'lgan. Jangolibborishningyangiusullariishlabchiqiladivako'plabjanglardashvedlarningqo'l inibalandkelishinitaminlagan. Askarlaruchunyangiharbiyustavishlabchiqilib, uningjudayaxshiishlabchiqilganligisabablishuvaqtningo'zidayoqfransuzvabirnechat illargatarjimaqilinib, ulardanboshqadavlatlarningharbiyishlaridahamfoydalanishgan[72].

Ko'shinharbiyqurollarningyanginamunalaribilantaminlanib, mushketlarningog'irligi 8-10 kilogrammgachakamaytirildivauningaskarlarganoqulayligikamaytirildi. HarbiysarkadalikborasidavaharbiyislohatlariningnatijasisifatidabirinchiPolshagaqar shiurushniyoqladi. 1621 yildajangbilanRiganiqo'lgakiritadi. KeyinroqGustav II AdolfningfaoliyatinatijasidashvedlarPrussiyaningbarchamuhimportlari, LiflyandiyayarimorolinivaBoltiqbo'yiningkattaqisminiegallabolishadi[73].

DoimiyravishdaurushlarolibborishuchunGustav II Adolfgakattamiqdordagimablag'zarurbo'lgan. Umablag'niNiderlandiya, GanzaittifoqishaharlarivaayrimhollardaFransiyadanolibturganvaalbattaularniolishu chundiplomatikyo'llardanfoydalangan. Shuorqalio'zarmiyasinivaxorijlikyollanganaskarlarinihampulbilantaminlayolgan.

Gustav II Adolf 1632 yiliprotestantknyazlarvaFransiyabilanittifoqchilikda 30 yillikurushgaqo'shilgandankeyinBavariyadabo'libo'tganjanglardanbirida 6 noyabrkunihalokbo'ladi[74]. Aynan shu jang natijasida shved armiyasining 5000 nafar askari halok bo'lgan.Gustav II Adolfning vafoti esa urushda katoliklarning mavqyeini pasaytirib yuborgan.

**Kristofer Polxem** (1661-1751) o'tmishda Shvesiyaning eng aqlli kishilaridan biri sifatida ko'rsatiladi va uni «shved mexanikasining otasi» deb tariflashadi.

---

[72] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 29.

[73] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 31.

[74] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С.34.

Uning faoliyati natijasida Shvesiyada fizika fani tezlik bilan rivojlana boshlagan.XVIII asrda aholisi kam bo’lsada, Shvesiya dunyoga mashhur bo’lgan fiziklar, botaniklar, astronomlar, ximiklar, geograflar, tibbiyot namoyondalari va boshqalarni yetkazib bergan[75]. Ular orasida Karl Linney, Kristofer Polxem, Turbern Bergman, Albert Selskiy, Karl Sheyele[76] va boshqalarni ko’rsatib o’tish mumkin.

Ko’rib o’tilayotgan davrda G’arbiy Yevropada ilm va fanninng taraqqiyoti tezlashib borar va bunda markazlashgan davlatlarning tashkil topganligini alohida takidlash kerak bo’ladi.

Kristofer Polxem yoki ismini to’liq aytganda Kristofer Polxamar kuplab shaharlik shvedlar kabi kelib chiqishi nemislarga borib taqalgan. Uning ajdodlari uzoq yillar Shimoliy Germaniyada yashaganlar va keyinroq asta-sekin shvedlashib borgan. Shvesiyadagi Gotland orolida tug’ilgan Kristofer Polxem shu yerdagi yagona hisoblangan Visbyu maktabida talim olgan.Ammo oilaviy muammolarning ko’payib ketishi natijasida 12 yoshidan boshlab tirikchilik uchun ishlashga majbur bo’lgan[77].

Shu sababli keyinchalik o’zining xotiralarida yoshlikdagi chiniqish natijasida 80 yoshida ham mehnat qobiliyatini yo’qotmaganligini aytib o’tgan. Otasi charm savdosi bilan shug’ullanib. Onasi bilan ajrashgandan keyin uning talim olishi uchun ular pul bermay qo’yishgan va tog’asi uni Stokgolmga olib ketib, eski nemis maktabiga beradi. 16 yoshidan boshlab o’zining ustaxonasini ochib, shu yerda odamlarning soatlarini va boshqa narsalarini tamirlab bera boshlagan, natijada tez orada mexanika sirlarini mukammal egallagan usta bo’lib yetishgan[78].

24 yoshidan boshlab unga egallagan bilimlari yetishmagandek bo’ladi, ammo unga bilimini oshirish uchun mablag’ va boshqa imkoniyatlar yetishmagan. Birinchi o’rinda o’zining takidlashicha, kitoblar va lotin tilining bilmasligi asosiy

[75] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 38.

[76] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 38

[77] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 40

[78] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 40.

kamchilik sifatida qaraladi. 1687 yilda u Upsaladagi soborda o'qishni davom ettiradi va unda mexanika, matematika fanlarini puxta o'zlashtiradi. O'zining aytishicha o'sha vaqtda u sutkasiga faqatgina 3 soat uxlagan xolos[79].

1690 yilda Polxem Stokgolmga keladi va shaharda davlat xizmatiga ishga joylashib, tog' konsanoatida faoliyat yurita boshlagan.Uning qiziqishi dastlab konlardagi suvni chiqarib tashlashga xizmat qiluvchi nasoslar bo'lab, ularning yanada samarali ishlashi uchun ilmiy izlanishlarni olib borgan.Mis qazib olish Shvesiyaning davlat monopoliyasi bo'lib, unga mis qazib olishning ko'paytirish vazifasi yuklanadi.Berilgan vazifani alo darajada bajargan Kristofer Polxemga 1700 yilda «Tog'-kon mexanikasi direktori» lavozimi berilgan[80].

Kristofer Polxemning shaxsiy hayotida oilasi juda muhim o'rin egallagan bo'lib, 1691 yilda uylangandan keyin 9 nafar farzandning (ularning faqat 5 nafari yashagan) otasi sifatida ularning tarbiyasi bilan ham mashg'ul bo'lishi kerak bo'lgan. 1690 yillarda tajribasini oshirish uchun Kristofer Polxem 2 yil muddatga boshqa davlatlarga yuboriladi. U Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiya, Belgiya va boshqa davlatlardagi metallurgiya sohasidagi eng so'nggi yangiliklarni o'rganib, yurtiga qaytadi va Shvesiyada ham ularni yanada mukammallashtirishga kirishadi. 1697 yilda u Stokgolmda o'zining labaratoriyasini ochishga erishadi va endi uning ishlari shu yerdan turib tezlashtiriladi[81].

Uning labaratoriyasi 1756 yilga qadar faoliyat olib borgan va faqatgina vafotidan 4 yil o'tib uning faoliyati to'xtaydi. Yevropaning qudratili davlatlaridan biriga aylangan Shvesiya uchun metallurgiya sanoatini yanada rivojlantirish juda muhim bo'lgan. Shu sababli Kristofer Polxemga shaxsan qirolning o'zi metall birinchi galda mis va temir qazishni oshirish vazifasini yuklaydi. 1700 yilda Kristofer Polxem moliyachi Sherner bilan birgalikda yangi katta Shernsund metallurgiya zavodini ishga tushirish borasida kelishib olishadi[82].

---

[79] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 41.

[80] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 42.

[81] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 43.

[82] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 44.

Ularning takidlashicha bu joy «Shvesiyaning Urali» bo'lishi kerak edi.Shu sababli Kristofer Polxem oilasi bilan shu yerga ko'chib kelib, ishni boshlab yuboradi.1729 yilda zavoda 200 nafar ishchi ishlaydigan yirik korxonaga aylandi. Bu yerda eng yangi texnikalar va texnologiyalar qo'llanilishi natijasida tadqiqotchilar Shernsund zavodi dunyodagi boshqa zavodlardan 100 yil oldinga o'tib ketgan bed tarif berilgan. Zavod o'zining tarixi davomida XX asr boshlariga qadar o'z mahsulotlarining miqdorini har yili doimiy ravishda orttirib borgan va shunga qadar undagi texnologiyalarga deyarli o'zgartirish kiritlmagan[83].

Shu o'rinda Kristofer Polxemning ayrim ixtirolarini ko'rsatib o'tish o'rinli bo'lardi. Ular: rudani bir necha kilometrgacha yetkazib beruvchi lentalar (bugungi kunda ham keng qo'llaniladi), Shernsundddagi ulkan soat, gidrodinamik mashina[84]va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Kristofer Polxemning ishlari uning tirikligida u qadar qadrlanmagan. Uning vafotidan keyin buyumlari va kundaliklari o'qilganda, undan 20 mingdan ortiqroq qo'lyozmalar qolganligi malum bo'ladi. Ularning orasida musiqa asboblarining yangi chizmalari ham borligi olimning qay darajada serqirra ijodkor bo'lganligidan dalolat beradi.Olimning buyu xizmatlarini yuqori baholagan shved xalqi uning rasmini mamlakatning 500 talik kupyurasiga tushirganlar[85].

**Filip Yuxan Shtralenberg** (1676-1747) u na siyosatchi, na ixtirochi va na rassom bo'lgan, uni faqatgina o'z davrining eng jasoratli insonlaridan biri sifatida talqin qilish mumkin. Filip Yuxan Shtralenbergning faoliyati natijasida Sibir, Markaziy Osiyo va Uzoq Sharqning ko'plab hududlari Rossiya imperiyasining xaritasiga tushurilgan. Bunga sabab sifatida tadqiqotchilar uning Sibirga surgun qilinishi bilan izohlashadi[86].

Zamondoshlari va ruslar uning kelib chiqishini nemislarga taqashadi. Otasi Filipp Iogann (shvedcha Yuxan) Tabbert fon Shtralenberg bo'lib, uning familiyasi

---

[83] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 45.

[84] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 46.

[85] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 50.

[86] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 51.

nemischa, ammo Tabbert familiyasi shvedlarga xos bo’lib, shved dvoryan xonodoniga tegishli bo’lgan.

FilipYuxanShtralenbergqirolKarl XII ningarmiyasidaShimoliyurushdaishtiroketgan. Keyinroqqruslargaasirtushib, 1711 yildaTobolskkakeltirilgan. BupaytdaRossiyadakelibchiqishishvedlarbo’lganko’plabkishilaristoqomatqilgan. Ular 1656-58 yillardagiurushdahamasirtushganlarhisobigaanchaginakishidaniboratedi. 1711 yildagiurushdashvedasirlariningsoniortishibilanularningbarchasiSibirgayuboriladi. Ularningsoni 1000 kishidanortiqbo’lib, Irtishdaryosisohillarigajoylashtiriladi[87].

1720 yildaPyotr I Sibirniilmiyjihatdantadqiqqilishuchunbirinchiekspedisiyaniyuboradivaungimillatin emisbo’lganDanilMessershmidtboshchilikqiladi. Uo’zibilanbirgaikkinafarshvedni, shujumladanFilipYuxanShtralenbergnihambirgaolibyo’lgachiqadi. 1721 yil 1 martdan 1722 yil 28 maygachaekspedisiyakundaliginiuto’ldiribborgan. ShudavrmobaynidaularShimoliyXitoy, UzoqSharqvaSharqiySibirningko’plabjoylaridabo’lib, borganjoylarinixaritagatushiradi[88].

Shu bilan birga u tatarlar, qalmiqlar va boshqa mayda sibir xalqlarining tillarini jadvalga tushirib borgan. 1722 yilning may oyida Rossiya va Shvesiya o’rtasida tinchlik shartnomasi imzolanadi. Nishtadt sulhiga ko’ra asir olingan shvedlar vataniga qaytishlari mumkin edi.

FilipYuxanShtralenbergham 1723 yilningyozida 12 yillikasirlikdankeyino’zvatanigaqaytishgaerishadi. Yangi qirol Fredirik unga dvoryan unvonini beradi va kapitan unvoni bilan harbiy xizmatda qoldiriladi[89].

---

[87] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 54.

[88] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 55.

[89] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 56.

Ana shunda Filip Yuxan Shtralenberg endi o’zining xaritalarga bo’lgan qiziqishini to’liq amalga oshirishi mumkin bo’ladi.

U o’zi to’plagan malumotlarni kito xolida nashr qilishga harakat qiladi, ammo u yetarli mablag’ni topa olmaydi vash u sababli u pul topish maqsadida bir necha yil davomida Berlinda, Lyubekda va boshqa shaharlarda ishlaydi va 1729 yilda yetarli mablag’ni topib ko’p tomlik xaritalar kitobini nashr qildiradi[90].

Ammo muallifning vafotidan ko’p o’tmasdan uning xarilarining qo’lyozma shakli o’g’irlanadi.Uning xizmatlarini ko’rsatish uchun quyidagilarni aytib o’tishning o’zi yetarli. Filip Yuxan Shtralenbergning xaritasida birinchi bor Osiyo va Yevropa o’rtasidagi tabiiy chegara sifatida Ural tog’lari ko’rsatilgan, Kamchatkaning joylashish o’rni va nihoyat Amerika va Osiyoning o’rtasidan o’tgan bo’g’oz birinchi marta ko’rsatilgan[91].

**Emanuel Svedenborg** (1688-1772) ning xizmatlari evaziga Rossiya fanlar Akademiyasining azoligiga qabul qilingan kam sonli xorijliklardan biri. Emanuel Svedenborg Shvesiya tarixida ixtirochi, faylasuf, diniy arbob va boshqa ko’plab sohalarning bilimdoni sifatida nom qoldirgan. Emanuel Svedenborg XVIIasr Shvesiyasining buyuk madaniyat va cherko arbobi sifatida mamlakatning buyukligini ko’rsatishi lozim bo’lgan. Uning asosiy ishlaridan biri inson fizioligiyasini o’rganish vash u orqali diniy tushunchalarning mazmunini ochib berishga harakat qilgan. Emanuel Svedenborg o’zining faoliyati natijasida «Osmon haqida», «Yangi Iyerusalim haqida», «Samoviy sirlar» va boshqa asarlarni yozgan[92].

**Rosen fon Rozenshteyn** (1706-1773) shved pediatriyasining otasi, uning 1764 yilda nashr qilingan bolalarning tarbiyasi va ko’plab bolalarda uchraydigan kasalliklarni davolashga mo’ljallangan kitobi deyarli bir yarim asr davomida shved va qisman rus ota-onalari uchun qo’llanma vazifasini bajargan. Rosen fon

---

[90] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 57.

[91] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 59.

[92] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 65.

Rozenshteyn Yevropada bu sohaga qiziqish uyg’onmagan bir davrda uning taritblarini va qator usullarini yoritib bergan. Pediatriya so’zi 1722 yilda shveysar vrachlaridan biri tomonidan ishlatilgan bo’lib, qadimgi grek tilida «bolani davolash» manosini bildirgan[93].

XVIIIasr davomida Shvesiyaning qudrati oshdi, uning Yevropadagi tasiri ham oshib borgan. Natijada qirollik va amaldorlarning turli sohalarga etibori shunga mos ravishda ortib borgan. Shu asrda mamlakatda 20 ta davlat shifoxanasi faoliyat ko’rsatgan va ularning taminoti yig’ilgan soliqlar hisobidan qoplangan. Ularda kambag’allar va boshqalarning davolanishlari rejalashtirilgan.

Rosen fon Rozenshteynning otasi ruxoniy bo’lib, u mamlakatning ikkinchi yirik shahri bo’lgan Getebogdagi tibbiyotga ixtisoslashgan gimnaziyada talik oladi va amalda u magistr darajasini olgandan keyin oliy malumotli vrachga aylanadi[94].

1728 yilda u magistrlik dissertasiyasini himoya qiladi.Ilmiy ishini davom ettirish uchun xorijga borishi talab qilingan.Sababi o’sha davrda tibbiyot fanlari bo’yicha doktorlik dissertasiyalarini faqatgina boshqa davlatlarda himoya qilishlari kerak bo’lgan, Shvesiyada esa imkoni bo’lmagan. 1730 yilda Rosen fon Rozenshteyn Gollandiyaning Xardervika shahrida doktorlik dissertasiyasini himoya qiladi[95].

Upsalaga qaytganidan keyin u universitetda tibbiyot fanlaridan dars bera boshlaydi.1739 yilda esa uni Shvesiya tarixida shifokorlar orasida birinchi bo’lib mamlakat fanlar Akademiyasining azoligiga qabul qilinadi. Uning tashabbusi bilan Shvesiyada bolalar shifoxonalari ochiladi va ularda dastlab Rosen fon Rozenshteynning o’zi ham faoliyat olib borgan. Bunday shifoxonalar Rossiyada faqatgina XIX asrdagina paydo bo’la boshlagan. 1744 yildan boshlab Rosen fon Rozenshteyn o’zining tibbiy malumotlarini va yangiliklarini jurnallarda nashr qildira boshlaydi[96].

[93] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 74.

[94] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 76

[95] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 77.

[96] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 78.

Rosen fon Rozenshteynning faoliyati tez oradi uni butun mamlakat va Yevropada mashhur qilib yuboradi va natijada 1764 yilda o'zining mashhur kitobini nashr qildiradi. Asar «Bolalar kasalliklari haqidagi malumotlar va ularni davolash» deb nomlanib, u 23 bobdan iborat katta hajmli kitob sifatida keng jamoatchilikning olqishini oladi[97]. Uning faoliyati davomida ko'plab dorilarni va yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinalarni yaratganligi aytiladi. Bu esa keyinchalik ham ko'plab kasalliklarning davolanishiga va bolalarning o'limini oldini olishga xizmat qilgan.

**Bernadot- Karl XIV Yuxan** (1763-1844) ning nomi mashhur inqilobchi va bir vaqtning o'zida Shvesiya hamda Norvegiyaning qiroli sifatida tarixda qolgan. Aynan uning faoliyati natijasida Shvesiyaning tashqi siyosati 180 gradusga o'zgarib ketgan deyiladi.

1789 yilda Fransiyada boshlangan burjua inqilobi natijasida Yevropadagi mavjud siyosiy vaziyat butunlay o'zgarib ketadi.Natijada Yevropaning ko'plab davlatlari Fransiyaga qarshi harbiy yurishlarni boshlab yuboradi.Yevropadagi siyosiy voqyealardan Shvesiya ham chetda qolib ketmaydi. Bernadot- Karl XIV Yuxan yoki Jan Batist Bernadot aslida Fransiyaning janubida kichikroq yer egasi va advokat oilasida tug'ilgan[98].

Fransiyadagi siyosiy voqyealarning rivojlanib borishi natijasida u ham inqilobchilar tomonida bo'ladi.U qisqa muddat 1795 yilda Fransiyaning harbiy vaziri ham bo'lgan.1797 yilda u Bonapartning Italiya yurishlarida ishtirok etadi.1799 yildagi 18 bryumerdan keyin ham u Napaleonga xizmat qilishda davom etadi. Bernadot va Napaleonning ukasi opa-singillarga uylanishi natijasida u Napaleonning oilasi bilan yanada yaqinlashadi. 1804 yilda Bernadot Fransiyaning 18 nafar marshalidan biriga aylanadi va bir vaqtning o'zida Shimoliy Germaniya davlati Gannoverning general-gubernatori ham edi[99].

---

[97] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 79.

[98] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 82.

[99] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 84.

1808 yilda Rossiya bilan ittifoqchi bo'lishidan cho'chigan Napaleon Shvesiyaga urush boshlaydi va ikki jang natijasiga ko'ra Shvesiya Fransiyaga Finlyandiya va yana bir nechta hududlarni berishga majbur bo'ladi. 1810 yilda Shvesiyaning qiroli Karl XIII dan Napaleon maktub oladi vash u yilning kuzida Bernadot Shvesiyaga keladi va amalda uni boshqara boshlaydi.

QirolKarl XIII ningo'limiuniamaldaShvesiyaninghukmdoridarajasigako'tardi. 1812 yilningapreloyidaRossiyavaFransiyao'rtasidagiurusharafasidaRossiyavaShvesiya, aniqrog'iimperatorAleksandr I vaBernadotlaro'rtasidamaxfiyravishdaittifoqshartnomasiimzolanadi. Ungako'raagarShvesiyabo'lajakurushdabetaraftursa, RossiyaShvesiyavaNorvegiyaningbirlashishiuchunto'sqinlikqilmaydiganbo'ladi[100].

Shu tariqa rus imperatori va Bernadot o'rtasidagi do'stlik ham boshlanadi. 1813 yilda Karl Yuxan Fransiyaga qarshi koalisiyaga qo'shiladi va Shvesiyadagi o'zining tasirini saqlab qolib, 1818 yilda Shvesiya va Norvegiya qiroli deb elon qilinadi. Uning qirolligi davrida Shvesiya va Norvegiya birlashgan qirolligining rivojlanishida u qadar katta o'zgarishlar yuz berganligini aytish qiyin, sababi 1830 yilda Fransiyada boshlangan inqilobiy o'zgarishlar Skandinaviya davlatlariga ham o'z tasiri o'tkazmasdan qolmasligi aniq edi.

Karl Yuxan konservativ qarash egasi sifatida Shvesiya va Norvegiyada liberal o'zgarishlar yuz berishini istamagan. Natijada Karl Yuxan Shvesiyada kapitalistik xo'jalikning yanada rivojlanishida hal qiluvchi qadamni qo'yadi va barcha yer egalari o'zlarining yerlarini maxsus to'siqlar bilan o'rab olishlariga ruxsat beriladi va ular o'z yerlarining haqiqiy egalariga aylanadi. Bernadotning hukmronligi yillarida kemalar qatnovi uchun uzunlig 200 km bo'lgan Gyot kanali qurilib, eni 26 metr va chuqurligi 3 metrni tashkil qilgan. Kanal Shvesiyaning ikki ko'lini birlashtirib, endi shved kemalaridan Daniya boj solig'ini olmasdi[101].

---

[100] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 86.

[101] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 89.

Qirol Karl Yuxan davridan boshlangan tinchlik Skandinaviya davlatlari uchun juda muhim bo'lib, bu tinchlik ikkinchi jahon urushiga qadar davom etdi. Uning vorisi Oskar I davrida birlashgan qirollik Angliya va Fransiya bilan yaqinlashib, hatto Qrim urushida ularga yordam beradi va uzoq vaqt davomida Rossiyaning urush xavfi mavjud bo'lib turdi. Qirolning oxirgi kunlari faqatgina to'shakda kasallik bilan o'tadi va davlat ishlari bilan umuman shug'ullanmaydi. Uning o'limidan keyin yaqinlari qirolning ko'kragida sobiq yakobinchilarga tegishli «qirol va tiranga o'lim» deb yozilgan tatuirovkani ko'rishgan[102].

**Adolf Erik Nordensheld** (1832-1901) mashhur shved tadqiqotchisi vaXIX asrning ikkinchi yarmida Shvesiya Fanlar Akademiyasining eng yirik vakillaridan biri. Adolf Erik Nordensheldning asosiy tadqiqot ishi Shimoliy Muz okeanini tadqiq qilish bo'lgan.

Adolf Erik Nordensheldning millati fin bo'lib, otasi yirik amaldor va minerolog bo'lib, Finlyandiya buyuk knyazligida (Rossiya imperiyasi tarkibida) tog'-kon depertamentida ishlagan. Uzoq yillik faoliyati natijasida otasi Finlyandiya va Rossiyaning ko'plab joylarini o'rgangan. Adolf Erik Nordensheld dastlab yoshligida tartibsiz bola bo'lgan va otasining ogohlantirish va tanbeg'idan keyin gimnaziyani alo baholarga bitiradi[103].

Keyin Aleksandrovskiy universitetining fizika-matematika bo'limiga o'qishga kiradi va uni bitirib, magistr diplomoni oladi. Adolf Erik Nordensheld o'zining boshqa mamlakatda ishlasha huquqidan foydalanib, Shvesiyaga ko'chib ketadi va o'zining faoliyatini shu yerda davom ettiradi.

1858 yildaushvedprofessoridegannomgasazovorbo'ladivaoradanuchyilo'tibFanlarAkademiyaningazoligigaqabulqilinadi. 1861 yildaimperatorAleksandr II Finlyandiyadagigeneral-

[102] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 92.

[103] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 110.

gubernatornialmashtirgandankeyinAdolfErikNordensheldo'zvatanigahamborishim konigaegabo'ladi, faqatshvedfuqorosisifatida.

AdolfErikNordensheldjudamashhursayyohbo'lib, uningfaoliyatinatijasidako'plabyangiliklarochilganvaularkeyinchalikkattao'zgarishlargaolibkelgan. Adolf Erik Nordensheld 1858-1873 yillarda 5 marta Shpisbergen oroliga ekspedisiya uyushtirida va u yerning geologiyasi, minerallari, flora va faunasini o'rganadi. Ayniqsa 1872-1873 yillardagi ekspedisiya eng kattasi bo'lib, unda 4 ta kema va 40 ta bug'u olinadi[104].

Adolf Erik Nordensheldning keyingi maqsadi ikii okean tutashgan joyni o'rganish va Sibirning sharqiy sohillarini o'rganish bo'lgan. Bunda unga Sibirdagi rus oltin sanoatchilari va tanishlari Aleksandr Sibiryakov va Mixail Sidorovlar yordam berishadi.

1875 yilda birinchi ekspedisiya boshlanib, unda Kars dengizi sohillari o'rganilishi kerak edi.Shu yerda ular yangi orolni kashf etishib, unga Dikson oroli deb nom berishadi.Keyinroq u yerda sovetlar Igarka Dikson shaharchasini qurishgan.Shu tariqa Adolf Erik Nordensheld birinchi bor Kars dengizini ilmiy tadqiq qilgan birinchi dengizchi sifatida tarixda qoladi.

Ikkinchi ekspedisiya 1876 yilda tashkil qilinib, unda Aleksandr Sibiryakov ham ishtirok etadi.Ekspedisiya uchun «Yumer» nomli yelkanli paraxod tanlandi. Bu safar ham ular Yeniseyning bo'ylaridan ortlariga qaytishadi[105].

Adolf Erik Nordensheld o'zining uchinchi Osiyo safarini boshlashdan avval 1877 yil yanvarda Stokgolmda Shvesiya qiroli Oskar II ekspedisiya qatnashchilari va homiylari bilan uchrashib, unda shved millioner iva yog'och savdosi vakili Dikson (ekspedisiyalarni asosan shu kishi moliyalashtirgan), va ruslardan Aleksandr Sibiryakov ham qatnashadi.

«Vega» kemasiajratilib, ungaharxilfansohasimutaxassislaribilanbirga 16 tamatrosdengizchilarhamberiladi. Jami 30 kishidaniboratjamoa 1878 yilning 22

[104] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 111.

[105] Кан.А. и Карлов. С «Знаменитые шведы», Санкт-Петербург. 2009. С. 112.

iyunidaBoltiqdengizidanyo’lgachiqqanva 1879 yilsentyabrdaYaponiya, SuvayshkanaliorqaliYevropagaqaytibkeladi. UningxizmatlarinatijasidakoʼplabyangikashfiyotlarqilindivauningnomiShvesiyaningvaYevropaningengjasurdengizchilarisafidanjoyoladi.

**III.Bob. A.S.KanShimoliyYevropadavlatlaritarixininingyirikmutaxassisi.**

**III.1. Norvegiyatarixigadoirtadqiqotlari.**

Norvagiya skandinaviya mamlakatlari orasida hududi va aholisi soni borasida yirik davlatlardan biri bo’lib, uning tarixi ham garchi kechroq bo’lsada, ammo juda boy va serqirra. Norvegiya davlati hududidan o’tmishda dengizga chiqqan kemalar butun Yevropa va hatto Shimoliy Afrika sohillarida joylashgan mamlakatlar va ularning xalqlarini dahshatga molib kelganlar. Tarixda normannlar yoki vikinglar nomi bilan bir necha asr davomida Norvegiya xalqlari dengizchilikda tengsiz bo’lib kelishgan. Shunday ekan Norvegiyaning tarixi ham anchagina chuqur va qiziqarli. A.S.Kan ham shu sabablarga ko’ra mamlakat tarixini yoritishga qo’l urgan bo’lsa kerak.

AleksandrSergeyevichKan skandinaviya mamlakatlari tarixining bilimdoni sifatida Norvegiya tarixining yoritilishi va uning keyingi yillardagi rivojiga katta hissa qo’shgan va qo’shib bormoqda. Bu boradi olimning amalga oshirgan ishlari talaygina. Mazkur paragrafda olimning aynan Norvegiya tarixiga oid amalga oshirgan ishlarini ko’rib o’tamiz.

Malumki, Shimoliy Yevropa davlatlari sirasiga kirgan Norvegiya o’z navbatida skandinaviya davlatlaridan biri sifatida ham o’rganib kelinadi. Albatta mamlakat tarixi Norvegiyalik tarixchilar tomonidan ham yoritib berilgan va yoritilmoqda, ammo boshqa mamlakat tarixchisi tomonidan o’zga bir davlat va xalq tarixining yoritilishi va bunda xolislik birinchi o’rinda turishi tahsinga sazovor bo’lgan holatdir.

Aleksandr Sergeyeviya Kan o’zining skandinaviya davlatlari borasidagi ilmiy ishlarini asosan arxiv malumotlari, tarixiy shaxslarning kundaliklari va o’sha paytdagi davriy matbuot sahifalaridagi malumotlarga asoslanib amalga oshirgan. Shunday uning barcha ilmiy ishlari haqqoniy malumotlardan iborat. Kanning ilmiy ishlari asosan yangi va eng zamon davrini qamrab olgan. Bu davrga oid malumotlar barcha davlatlar kabi skandinaviya davlatlari tarixiga oid malumotlarni ham istagancha topish mumkin va ularni tartibga solishda qator qiyinchiliklar uchraydi va mana shunday murakkab ishni A.S.Kan amalga oshirib kelmoqda.

Norvegiya tarixiga oid asarlar rus tilida ham yetarli darajada bo'lmagan va bu xolat A.S.Kan tomonidan mazkur davlatning tarixiga oid qator ilmiy ishlar elon qilunmaganga qadar. Shunday ekan mazkur paragrafda Norvegiya tarixi bo'yicha Kan amalga oshirgan ishlarni berib o'tamiz va ular quyidagilar. Aleksandr Sergeyevich Kan o'zining 1980 yilda nashr qilingan Istoriya Norvegii (Norvegiya tarixi)[106],1966 yilda Voprosы istorii jurnalining № 12 sonida nashr qilingan«VneshnyayapolitikaNorvegiyavgodы vtoroymirovoyvoynы» (Ikkinchi jahon urushi yillarida Norvegiyaning tashqi siyosati)[107], 1974 yilda 3-marta nashr qilingan «Bolshaya Sovetskaya Ensiklopediya»ning 18 tomidan joy olgan Norvegiya: istoricheskiy ocherk (1800-1945 gg.)[108] kabi asarlarda Norvegiyaning turli davrlarga oid malumotlar kiritilgan.

Ularning orasida keng miqyosli ilmiy ishlar sirasiga Istoriya Norvegiya asarini ko'rsatish mumkin. Sababi 1980 yilda nashr qilingan mazkur asardan sobiq ittifoqdagi barcha oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetlari talabalari Norvegiya tarixini o'rganish uchun foydalangan va foydalanib kelmoqdalar.MazkurasarningA.S.Kantalqinidaberilishidaquyidagilarniaytibo'tishlozim. Norvegiya tarixining boshlang'ich davridan to eng zamon davr tarixigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olib, bunda olim arxeologik topilmalarning mamlakat va unga qo'shni mamlakatlar tarixini o'rganishdagi xizmatini ham baholab bera olgan.

Yuqoridako'rsatibo'tilganilmiyasarlarbilanbirgaturliilmiyjurnallar, ommaviynashrlar, ensiklopediyalarvabosho'alardahamolimNorvegiyatarixigaoidmaqolalarvaboshqaturdagiishlaribilanishtiroketgan. Shularning jumlasiga 1967 yilda nashr qilingan «Vneshnyaya politika skandinavskix stran v godы vtoroy mirovoy voynы»

[106]Кан А.С. История Норвегии. – Москва : Наука. 1980.

[107]Кан А.С. Внешняя политика Норвегия в годы второй мировой войны. // Вопросы истории.- Москва, 1966. № 12

[108]Кан А.С. Норвегия : исторический очерк (1800-1945 гг.). // Большая Советская Энциклопедия. 3-е изд.- Москва, 1974. –Т. 18.

(Ikkinchi jahon urushi yillarida Skandinaviya davlatlarining tashqi siyosati) kitobida ham Norvegiya tarixining qisqa davriga bo'lsada, keng miqyosda malumotlarni keltirib o'tadi[109].

1971 yil nashr qilingan va oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan va darslik sifatida tavsiya qilingan «Istoriya skandinavskix stran: (Daniya, Norvegiya, Shvesiya)» (Skandinaviya mamlakatlari tarixi: Daniya, Norvegiya, Shvesiya) kitobida ham umumiy ravishda Norvegiya tarixining turli davrlariga xususan qadimgi va o'rta asrlardagi davrlaridan to 1970 yillarga qadar bo'lgan tarixiga oid umumiy malumotlar keltirib o'tilgan[110].

Asarning birinchi qismida Skandinaviya davlatlarining qadimgi tosh davridan boshlab, o'rta asrlardagi feodal munosabatlarining o'rnatilishi va shu bilan birga Norvegiyadagi o'zgarishlarning ham barcha qirralarini ko'rsatib o'tgan. Kitobdagi barcha malumotlar skandinaviya davlatlarining umumiyligi asosida berib o'tgan.

Boshqa bir maqolasi 1965 yilda Voprosы istorii jurnalining № 3 da sonida berilgan bo'lib, «Izucheniye novoy istorii v skandinavskix stran v XVIII- nachale XX vv.» (XVIII-XX asr boshlarida Skandinaviya davlatlarining yangi tarixini o'rganish) deb nomlanib, uning mazmuni asosan skandinaviya davlatlarining yangi davr tarixini o'rganishdagi ayrim masalalar ko'rib chiqilgan[111].

Novaya i noveyshaya istoriya jurnalining 1979 yil № 3 sonida «Skandinavskiye stranы v 70-ye godы» ilmiy maqolasida A.S.Kan skandinaviya davlatlarining XX asrning 70-yillaridagi tarixiga oid malumotlarni berib o'tgan[112].

Shu o'rinda bir jihatga etibor qaratish lozim, Norvegiya tarixining Kan ilmiy izlanishlaridagi o'rni alohida ajralib turmaydi deyish mumkin, aksincha mamlakatning tarixi skandinaviya davlatlarining tarixiga kiritilgan holda imkon

---

[109]Кан А.С. Внешняя политика скандинавских стран в годы второй мировой войны.- Москва: наука, 1967. – 456с.

[110]Кан А.С. История скандинавских стран : (Дания, Норвегия, Швеция) : учеб.пособие для студентов ист. Специальностей вузов.- Москва : высш.шк., 1971.- 326с.

[111]Кан А.С. Изучение новой истории в скандинавских стран в XVIII- начале XX вв. // Вопросы истории.- Москва, 1965.- № 8. С.94-107.

[112]Кан А.С. Скандинавские страны в 70-е годы.// Новая и новейшая история. – Москва. 1979. - № 3.

qadar ulardan ajratib ko’rsatilmagan. Faqatgina ayrim hollarda Norvegiya tarixining faqat o’ziga murojjat qilinganligini kuzatishimiz mumkin.

A.S.Kanshuningdekskandinaviyadavlatlariningo’rtaasrlartarixigaoidilmiyizlan ishlarnihamolibborgan. Ularningjumlasigaquyidagilarnikeltiribo’tishmumkin.

1957 yildasobiqSSSRdakengmiqyosdaamalgaoshirilganilmiyishlardanbiribo’lganVsemir nayaistoriya (Butundunyotarixi) ko’ptomlikishlarning 3-tomigakiritilgan«Skandinavskiye stranы v XII-XV vv» (Skandinaviyadavlatlari XII-XV asrlarda ) nomliilmiymalumotlaribo’lib, uningberilishnatijasidamazkurkattamiqyosliishlarningSkandinaviyadavlatlarigaoid qismlarito’ldirilgan[113].

Boshqa bir ilmiy malumotlari yana shu ishlarning 1958 yilda nashr qilingan 4-tomidan joy olgan bo’lib, u [114] skandinaviya davlatlarining so’nggi o’rta asrlar davrini yoritishga xizmat qiluvchi «Skandinavskiye stranы v XVI- pervoypolovine XVII v»(Skandinaviya davlatlari XVI asr va XVII asrning birinchi yarmi)deb nomlanadi. Mazkur ilmiy malumotlar yordamida tarix faniga qiziquvchi barcha kishilar skandinaviya davlatlarining 1500-1650 yillar tarixini o’rganish va shu davr tarixi bo’yicha malumotlar olish imkoniga ega bo’ladilar.

Shu nashrning davomi sifatida 1958 yilda nashr qilingan 5-tomdan joy olgan va Kan tomonidan yozilgan «Kultura Skandinavskix narodov» (Skandinaviyamamlakatlarimadaniyati) nomliilmiymalumotlaridaskandinaviyamamlakatlarining 1650-1800 yillardagimadaniyativamadaniyataraqqiyotigaoidmalumotlarkeltiribo’tilgan[115].

Ularning barchasida Norvegiyaning turli davrlargat oid tarixi va madaniyati tarixi yoritib berilgan. Shu sababli olim nafaqat Shvesiya tarixiga doir ilmiy

---

[113]Кан А.С. Скандинавские страны в XII-XV вв. // Всемирная история.- Москва, 1957.- Т.3. с. 689-694.

[114]Кан А.С. Скандинавские страны в XVI- первой половине XVII в // Всемирная история.- Москва, 1958.- т.4: (1500-1650гг.) / отв.ред. М.М.Смирин.

[115]Кан А.С. Культура Скандинавских народов. // Всемирная история. – Москва, 1958.- т. 5: (1650-1800 гг.) / отв.ред. Я.Я.Зутис.

izlanishlarni olib borgan, balki uning faoliyati natijasida Skandinaviyaning eng yirik davlatlaridan biri Norvegiyaning tarixi ham yoritib berilgan.

Aleksandr Sergeyevich Kanning skandinaviya davlatlari va xalqlari tarixiga oid ishlari asosan yangi va eng yangi davr tarixini qamrab olgan. Shu sababli mazkur davr tarixini yoritib beradigan ilmiy ishlarning soni ko’proq. Shu sababli ularning bir nechtasini ko’rsatib o’tamiz.

Birinchisi 1974 yilda pedagoki institutlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik sifatida nashr qilingan kitobdagi malumotlar asosida berilgan «Noveyshaya istoriya 1918-1939 gg» darsligining «Skandinavskiye stranы v 1918-1939 gg.» (Skandinaviya mamlakatlari 1918-1939 yillarda) bobida skandinaviya davlatliri bilan birga Norvegiyaning tarixiga oid malumotlarni keltirib o’tgan.

Navbatdagi malumotlar ham shunday ishlardan birida berilgan bo’lib, 1975 yilda pedagogika institutlarining tarix fakulteti talabalari uchun nashr qilingan «Noveyshaya istoriya 1939-1973 gg» darsligining «Skandinavskiye stranы» (Skandinaviya mamlakatlari) kitobining bir necha mavzulari aynan skandinaviya davlatlarining 1939-1973 yillar tarixini yoritishga xizmat qiladi. Ularning qatorida Norvegiya tarixining mazkur davriga oid malumotlar ham keltirilgan[116].

1976 yilda N.Ye.Ovcharenko tahriri ostida pedagogika institutlarining tarix fakulteti talabalari uchun Yangi tarix darsligi nashr qilinib, unga «Shvesiya, Norvegiya, Daniya v 1870-1917 gg.» nomli mavzu ham kiritilib, undagi malumotlar 1870-1917 yillarni o’z ichiga oladi. Shu sababli bir necha mavzu Noorvegiya tarixining birinchi jahon urushiga qadar bo’lgan tarixiga oid malumotlar kiritiladi.

1979 yilda R.F. Ivanov tahriri ostida «Vsemirnaya istoriya» ko’p tomlik kitobining 12-tomi nashrdan chiqariladi va undagi «Kapitalisticheskiye stranы Severnoy Yevropы : (Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Islandiya, Finlyandiya )» (Shimoliy Yevropaning kapitalistik davlatlari: Shvesiya, Norvegiya, Daniya,

---

[116]Кан А.С. Скандинавские страны.// Новейшая история 1939-1973 гг.: учеб.для студентов ист.фак.гос. ун-тов/гл.ред И.С.Галкин.- Москва. 1975.

Islandiya, Finlyandiya) nomli ilmiy malumotlari ham A.S.Kan tomonidan tayyorlangan[117].

Norvegiya tarixining Kan tomonidan yorilishi garchi Shvesiya tarixi kabi keng darajada yoritilmagan bo'lsada, ammo barcha skandinaviya davlatlarining tarixini yoritish barobarida Norvegiya tarixining ham deyarli barcha davri qamrab olingan.

Bunda o'rta asrlar, yangi zamon va eng yangi zamon davrlariga doir malumotlar ham keltirilgan. Kan Norvegiya tarixining ikkinchi jahon urushi davridagi tashqi siyosati va unlan keyingi davri tarixiga alohida etibor berganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa skandinaviya davlatlarining tarixlari, ayniqsa Islandiya va Finlyandiya tarixiga olimning etibori boshqa davlatlarining tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va etiboridan kuchsizroq ekanligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Skandinaviya xalqlari va davlatlari tarixini bir-biridan ajratib ko'rsatish va ularni yoritish juda qiyin. Sababi asrlar davomida bir makonda yashab kelgan kishilarning tarixi har doim umumiylik asosida birga davom etadi. A.S.Kan ham ham shu tamoyilga asoslangan xolda o'zining asarlarida barcha skandinaviya mamlakatlarining tarixini birga va bir-biriga bog'lab yoritadi.

---

[117]Кан А.С. Капиталистические страны Северной Европы : (Швеция, Норвегия, Дания, Исландия, Финляндия ) // Всемирная история. – Москва, 1979. – Т. 12: (1950-1960гг.)/отв.ред. Р.Ф. Иванов

**III.2.A.S. KanasrlaridaDaniyavaFinlyandiyatarixiningyoritilishi.**

Skandinaviyadavlatlariorasida Daniya va Finlyandiya o’zlarining boy tarixi va madaniyati bilan alhida ajralib turadi va shu bilan birga barcha skandinaviya mamlakatlari tarixi bilan bog’liq xolda rivojlanib borgan. Bu borada Aleksandr Sergeyevich Kan ham o’zining ilmiy asarlarida ko’p bora takidlab o’tgan.

Daniya tarixi uzoq davrlar Angliya va Fransiya tarixi, shu bilan birga Niderlandiya davlatlari tarixi bilan bog’liq xolda rivojlanib kelgan. Skandinaviya davlatlari qatori Daniya ham o’zining boy tarixiga ega. O’rta asrlar davrida Daniya bir necha marta qudratli davlat sifatida Yevropaning siyosiy hayotida muhim o’rin egallab kelgan. Qirol Kanutning Britaniya orollarini o’ziga bo’ysindirganining o’zi mazkur davlatning o’tmishdagi buyukligini isbotidir.

Finlyandiya davlati ham skandinaviya davlatlari kabi tarix va taqdirda boshqa xalqlar bilan bir xil. Shu bilan birga skandinaviya mamlakatlari orasida eng ko’p darajada Rossiya va ruslar yoki slavyan xalqlari bilan bog’liq. Ayniqsa mamlakatning keyingi davr tarixida Rossiya imperiyasi jada katta o’ringa ega. To’g’ri Shvesiya tarixida ham Rossiya bilan yaqinlik va bog’liklik ajralib tursada, ammo Finlyandiyaning uzoq yillar Rossiya imperiyasi tarkibida bo’lishi uning Rossiya bilan yaqinligining sabablaridan biridir.

Mazkur paragrafda Aleksandr Sergeyevich Kanning Daniya va Finlyandiya davlatlari va xalqlari tarixiga oid ilmiy izlanishlarining natijalari borasida so'z yuritamiz. Dastlab nomlari keltirib o'tilgan davlatlarning tarixini yoritishga xizmat qiladigan yirik ilmiy asarlar va ularda berilgan malumotlarning umumiy mazmunini keltirib o'tish o'rinli bo'lardi.

1967 yilda yuqorida keltirib o'tkanimizdek sobiq ittifoqdagi oliy o'quv yurtlarining tarix fakultetida tahsil oladigan talabalar uchun nashr etilgan «Vneshnyaya politika skandinavskix stran v godы vtoroy mirovoy voynы» (Skandinaviya davlatlarinng ikkinchi jahon urushi yillaridagi tashqi siyosati) kitobi olimning dastlabki keng miqyosli ilmiy ishlaridan biri bo'lib. Uning nashr etilishi natijasida skandinaviya davlatlirining tarixi va shu jumladan Daniya va Finlyandiyaning ikkinchi jahon urushi yilaridagi tarixi yoritib berilgan[118].

1971 yildamaxsusoliyo'quvyurtlariningtalabalariuchunnashrqilingan«Istoriya skandinavskix stran: (Daniya, Norvegiya, Shvesiya)»(Skandinaviya mamlakatlari tarixi:Daniya, Norvegiya, Shvesiya) o'quv qo'llnamaning ham muallifi A.S.Kan bo'lib, mazkur katta hajmli ishda shu paragrafda yoritilishi kerak bo'lgan Daniya davlati haqidagi malumotlar kiritilgan bo'lsada, ammo Finlyandiya tarixiga oid malumotlar kiritilmagan[119].

Yuqorida keltirib o'tilgan har ikki kitob Kanning yirik ishlaridan bo'lib, ular orqali skandinaviya mamlakatlarining butun tarixi imkon qadar qisqa satrlarda bo'lsada, yoritib berilgan.

Keyingi o'rinlarda Kanning yirik asarlari emas,balki katta hajmda bajarilgan ensiklopediyalar, «Vsemirnaya istoriya» kabi yirik to'plamlar uchun yozgan ishlarini misol sifatida keltirib o'tishni lozim topdik va ular quyidagilar.

1965 yilda «Voprosы istorii» jurnalining № 8 sonida Kan tomonidan yozilgan «IzucheniyenovoyistoriivskandinavskixstranvXVIII- nachale XX vv» (XVIII asr

---

[118]Кан А.С. Внешняя политика скандинавских стран в годы второй мировой войны.- Москва: наука, 1967. – 456с.

[119]Кан А.С. История скандинавских стран : (Дания, Норвегия, Швеция) : учеб.пособие для студентов ист. Специальностей вузов.- Москва : высш.шк., 1971.- 326с.

va XX asr boshlarida Skandinaviya mamlakatlarining yangi tarixini o’rganish)[120] nomli maqolasi nashr etiladi. Unda XVIII asrdan to XX asr boshlarigacha bo’lgan davrdagi skandinaviya davlatlarining yangi zamon davridagi tarixiga oid malumotlar keltirib o’tilgan bo’lib, unda Daniya va Finlyandiya davlatlarining tarixi ham yoritib berilgan.

Yuqorida takidlanganidek Daniya va Finlyandiya tarixiga oid alohida bir yirik ilmiy asar A.S.Kan tomonidan amalga oshirilmagan. Shu sababli uning mazkur davlatlar haqidagi ilmiy maqolalari va boshqa malumotlarini keltirib o’tamiz.

Yana bir maqolasi 1967 yilda «Novaya i noveyshaya istoriya» jurnalining № 4 sonida nashr qilingan «Vneshnepoliticheskoye polojeniye Danii vo vremya vtoroy mirovoy voyны» (Ikkinchi jahon urushi davrida Daniyaning tashqi siyosiy ahvoli)[121] nomli maqolasida ham Daniyaning alohida davri tarixi bo’lgan ikkinchi jahon urushi davri boasidagi malumotlarni berib o’tgan. Umuman Kan o’zining ilmiy faoliyati davomida barcha skandinaviya mamlakatlarining ikkinchi jahon urushi yillaridagi tashqi siyosati mavzusiga murojaat qilgan.

1976 yilda «Novaya i noveyshaya istoriya» jurnalining № 1 sonida nashr qilingan «Istoricheskiy nauka v sovremennoy Finlyandii» (Zamonaviy Finlyandiyada tarix fani) nomli ilmiy maqolasida Finlyandiya tarixiga boshqa tomondan etibor qaratgan[122]. Unda ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan to 1976 yilga qadar bo’lgan davrda mamlakatda tarix fani rivoji haqida so’z boradi va undagi muammolar ham keltirib o’tilgan.

Kan o’zining skandinaviya mamlakatlarining tarixini yoritishda asosiy etiborni shu davrda sodir bo’layotgan yoki yaqin o’tmishda sodir bo’lgan voqyea

---

[120]Кан А.С. Изучение новой истории в скандинавских стран в XVIII- начале XX вв. // Вопросы истории.- Москва, 1965.- № 8. С.94-107

[121]Кан А.С. Внешнеполитическое положение Дании во время второй мировой войны. // Новая и новейшая история .- Москва, 1967. № 4. С96-107

[122]Кан А.С. Исторический наука в современной Финляндии. // Новая и новейшая история. – Москва, 1976. № 1. С 214-218.

va xodisalarni yoritishga etibor qaratgan. Qisqa qilib aytganda tarixchi skandinaviya davlatlarining eng yangi davr tarixiga katta etibor bergan.

Shunday ishlardan biri sifatida 1979 yilda «Novaya i noveyshaya istoriya»jurnalining№ 3 sonida nashr qilingan«Skandinavskiye stranы v 70-ye godы»(Skandinaviya mamlakatlari 70-yillarda) nomli ilmiy maqolasida mintaqa davlatlarining o’n yilga yaqin davrdagi tarixiga va ularda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda yuz bergan o’zgarishlarni yoritib o’tgan. Tabiiyki, mazkur maqolada ham Daniya va Finlyandiya tarixining qsqa davri yoritib berilgan[123].

1979 yilda R.F. Ivanov tahriri ostida nashr qilingan keng ko’lamdagi ishlardan biri bo’lgan «Vsemirnaya istoriya»ko’ptomlikkitobining 12 tomidaKantomonidantayyorlangan«Kapitalisticheskiye stranы Severnoy Yevropы: (Shvesiya, Norvegiya, Daniya, Islandiya, Finlyandiya)» (ShimoliyYevropaningkapitalistikdavlatlari) nomli ilmiy malumotlarida ham ko’rib o’tayotganimiz Daniya va Finlyandiya tarixining yangi va eng yangi zamon davriga oid malumotlar keltirilgan [124].

A.S. Kanning ilmiy malumotlari yuqorida aytib o’tganimizdek oliy o’quv yurtlari talabalari uchun tayyorlangan darsliklarga ham kiritilgan. Shular jumlasiga ko’rsatib o’tadigan kitoblarda ham Daniya va Finlyandiyaning tarixi yoritib o’tilgan. Ulardan 1974 yilda oliy o’quv yurtlarining tarix fakulteti talabalari uchun darslik sifatida I.S.Galkin tahriri ostida nashr qilingan «Noveyshaya istoriya 1918-1939 gg»kitobining 464-478-betlarida «Skandinavskiye stranы v 1918-1939 gg» (1918-1939 yillarda Skandinaviya davlatlari) nomli mavzularda mazkur davlatlarning tarixi yoritib o’tilgan [125].

---

[123]Кан А.С. Скандинавские страны в 70-е годы.// Новая и новейшая история. – Москва. 1979. - № 3. С 142-155

[124]Кан А.С. Капиталистические страны Северной Европы : (Швеция, Норвегия, Дания, Исландия, Финляндия ) // Всемирная история. – Москва, 1979. – Т. 12: (1950-1960гг.)/отв.ред. Р.Ф. Иванов.- с243-261

[125]Кан А.С. Скандинавские страны в 1918-1939 гг. // Новейшая история 1918-1939 гг.: учеб.для студентов ист.фак.гос.ун-тов \ гл.ред. И.С.Галкин. - Москва, 1974. С464-478

1975 yilda sobiq SSSR dagi davlat universitetlarning tarix fakulteti talabalari uchun darslik sifatida nashr qilingan «Noveyshaya istoriya 1939-1973 gg» nomli kitobdagi «Skandinavskiye stranы» mavzusi ham A.S.Kan tomonidan tayyorlab berilgan bo'lib, uning yordamida talabalar skandinaviya davlatlarining 1918-1939 yillardagi tarixini aynan shu kitob yordamida o'rganib kelganlar va bu xolat hamon davom etmoqda[126].

1952 yilda nashr qilingan va sobiq ittifoqda miqyosida bajarilgan yirik ishlardan biri bo'lgan «Bolshaya Sovetskaya Ensiklopediya»ning 13 tomidan joy olgan «Daniya: Istoricheskiy ocherk (do 1864 g.)» (Daniya: tarixiy ocherklar. 1864 yilgacha) nomli ilmiy malumotlari asosida butun mamlakatdagi kishilar Daniyaning qisqa, ammo umumiy holda berilgan 1864 yilga qadar bo'lgan tarixi haqida malumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ldi [127].

1957yildasobiqittifoqda keng miqyosdaamalgaoshirilganishlardanbiribo'lganva shu nashr qilingan va «Vsemirnayaistoriya»ko'ptomlikkitobining 3-tomidanjoyolgan«Skandinavskiyestranы v XII-XV vv»ilmiy malumotlari A.S.Kan tomonidan tayyorlab berilgan[128].

Uning ahamiyatli tomoni shundaki, bir necha yuz ming nusxada nashr qilingan mazkur kitob yordamida sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan 15 ta davlat vakillari bo'lgan tarix yo'nalishidagi talabalarning barchasi va boshqa soha kishilari ham shu kitoblar orqali skandinaviya mamlakatlari tarixiga oid malumotlarni ular yordamida o'rganib kelishgan va kelmoqdalar.

1959 yilda nashr qilingan «Vsemirnayaistoriya»ko'ptomlikitobining 4-tomigakiritilgan«Skandinavskiye stranы v XVI- pervoypolovine XVII v»nomliilmiymaqolahamA.S.Kanijodigaoidbo'lib,

---

[126]Кан А.С. Скандинавские страны.// Новейшая история 1939-1973 гг.: учеб.для студентов ист.фак.гос. ун-тов/гл.ред И.С.Галкин.- Москва. 1975. С. 433-444

[127]Кан А.С. Дания : Исторический очерк (до 1864 г.) // Большая Советская Энциклопедия.- 2-е изд.- Москва, 1952.- Т.13

[128]Кан А.С. Скандинавские страны в XII-XV вв. // Всемирная история.- Москва, 1957.- Т.3. с. 689-694.

uningyordamidaskandinaviyadavlatlariningso'nggio'rtaasrlardavritarixiyoritilganv aularning boy malumotlari tarixchi talabalartomonidankengo'rganibkelinmoqda[129]. Uning bergan tarixiy asarlardan joy olgan malumotlari ham ko'plab topiladi. Daniya va Finlyandiya tarixining barcha davri imkon qadar mazkur kitoblar va to'plamlarga kiritilgan.

Daniya va Finlyandiya tarixining A.S.Kan tomonidan o'rganilishiga doir oxirgi malumot sifatida 1976 yilda N.Ye.Ovcharenko tahriri ostida nashr qilinganva pedagogika institutlarining tarix fakulteti talabalir uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya qilingan «Novaya istoriya»kitobining II qismidagi «Shvesiya, Norvegiya, Daniya v 1870-1917 g» nomli ilmiy malumotlar va maruzalar A.S.Kan qalamiga mansub [130].

Yuqoridagi malumotlarga asoslanib, yirik tarixchi olim va skandinavist olimlarning sobiq SSSR dagi, bugungi kunda Rossiya va Shvesiyadagi ustozi bo'lgan Aleksandr Sergeyevich Kan barcha skandinaviya mamlakatlari tarixi kabi Daniya va Finlyandiya tarixini ham o'rganish ishlarida uzoq yillar davomida ilmiy izlanishlar olib borgan va zahmat chekkan. Bu esa haqiqiy mehnatning samarasidir.

Aleksandr Segeyevich Kan Shvesiya tarixi bilimdoni bo'lib qolmasdan barcha skandinaviya davlatlari tarixining bilimdoni sifatida dunyodagi tarixchilar orasida o'zining alohida o'rniga ega. Bugugi kunda Rossiya va boshqa rivojlangan Yevropa davlatlarida tarix fani faqatgina o'z davlatinig tarixi bilan emas balki jahon xalqlari va mamlakatlari tarixini o'rganish bilan ham belgilab berilmoqda. Har bir oliy o'quv yurtlarining tarixi yo'nalishlarida albatta davlatlar va xalqlar tarixini o'rganuvchi bo'limlar, alohida fakultetlar, ilmiy tadqiqot markazlari va boshqalar faoliyat olib bormoqda. Mazkur malakaviy bitiruv ishida berilgan

[129]Кан А.С. Скандинавские страны в XVI- первой половине XVII в // Всемирная история.- Москва, 1958.- т.4: (1500-1650гг.) / отв.ред. М.М.Смирин.- с.356-371

[130]Кан А.С. Швеция, Норвегия, Дания в 1870-1917 гг. // Новая история : учеб пособие для студентов ист.фак.пед.ин-тов/под.ред. Н.Е.Овчаренко. - Москва, 1976. Ч.2: 1871-1917 гг. С 458-472

malumotlar hai yurtimizda jahon tarixiga berilayotgan etiborning bir ko'rinishlaridan biri deyishimiz mumkin.

**Xulosa.**

Mavzuniyoritishmobaynida tarixchi sifatida Aleksandr SergeyevichKantomonidanamalgaoshirilganilmiyishlarvauningyaratganasarlarinin gayrimlariniumumiyholdako'rib chiqishning imkoni bo'ldi xolos.Sababi dunyoga mashhur olimning barcha ilmiy izlanishlari bir malakaviy bitiruv ishi doirasida

amalga oshmaydigan ishdir. Bunda faqatgina rus tilida yaratilgan kitoblari va maqolalari asosida ishni yoritishga harakat qildik.

Skandinaviya davlatlari asosan Norvegiya, Shvesiya, Finlyandiya, Daniya va Islandiya deb ko’rsatiladi. Lekkin Finlyandiya va Islandiya masalasida ayrim olimlarning fikri boshqacha va ularni skandinaviya davlatlari qatoriga kiritishmaydi. Aleksandr Sergeyevich Kan ijodiga etibor beradigan bo’lsak, asosiy etibor ko’proq Shvesiya tarixini o’rganishga qaratilgan. Ammo boshqa davlatlarining tarixi ham keng miqyosda o’rganilgan, Islandiya tarixi esa juda kam o’rganilgan.

Olimning sobiq SSSR dagi ilmiy faoliyati davomida ko’plab ilmiy ishlar amalga oshirilishi minglab talabalar uchun skandinaviya davlatlari tarixining rus tilida o’rganish imkoniyatini yaratib bergan, ammo 1987 yilda olim o’z oilasi bilan Shvesiyaga ko’chib ketishi natijasida endi asosan shved tilidagi ilmiy maqola va asarlarni elon qildira boshlagan. Bu esa rus tilida talim oluvchi talabalar uchun bir qancha murakkabliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mavzuni yoritish davomida olimning ijodiga oid faqatgina bir nechta kitob va ilmiy maqolalarga to’xtala oldik xolos, ammo bu ishda A.S.Kan ijodini to’liq yoritishning imkoni yo’q. 2009 yildagi malumotlarga ko’ra olimning barcha ilmiy ishlari 580 tani tashkil qilgan va undan keyingi o’tgan 4-5 yil davomida olim ijoddan to’xtamagan. Bu esa uning yangi asarlar va ilmiy maqolalarni yaratganligidan dalolat beradi.

Olim hamon oramizda ekan skandinaviya mamlakatlari tarixi bilan qiziquvchi va shu davlatlar mavzusi bilan shug’ullanuvchi yosh talabalar va tadqiqotchilar uchun ustoz va to’g’ri yo’l ko’rsatuvchi rahnamo sifatida bo’lib qoladi.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

### Асосий адабиётлар


1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. 1998.
2. Кан А.С. Новейшая история Швеции. – Москва : Международные отношения, 1964. – 304с.
3. Кан А.С. Внешняя политика скандинавских стран в годы второй мировой войны.- Москва: наука, 1967. – 456с.
4. Кан А.С. История скандинавских стран : (Дания, Норвегия, Швеция) : учеб.пособие для студентов ист. Специальностей вузов.- Москва : высш.шк., 1971.- 326с.
5. Кан А.С. История Швеции. – Москва : Наука, 1974. - 720 с
6. Кан А.С. История Норвегии. – Москва : Наука. 1980.- 712с
7. Кан А.С. Швеция и Россия – в прошлом и настояшем.- Москва : Рос. Гос. Гуманит.ун-т, 1999. 358с.
8. Кан.А. и Карлов. С. Знаменитые шведы. - Санкт-Петербург: Европейский Дом, 2009. 159с.


### Илмий мақолалар.

9. Кан А.С. Сведения русских об Английской революции // Известия Академии наук СССР. Сер.истории и философии.- Москва, 1949.- № 45.- с. 464-465.
10. Кан А.С. Шведские историки о Полтавской битве : (обзор источников и литературы за последние полвека) // История СССР.- Москва, 1959. -№ 4.- с. 182-196.
11. Кан А.С. Шведский нейтралитет в годы второй мировой войны. // Скандинавский сборник. – Таллин, 1964. Т.8.- с. 239-254.
12. Кан А.С. Изучение новой истории в скандинавских стран в XVIII- начале XX вв. // Вопросы истории.- Москва, 1965.- № 8. С.94-107
13. Кан А.С. Внешняя политика Норвегия в годы второй мировой войны. // Вопросы истории.- Москва, 1966. № 12. С53-65
14. Кан А.С. Внешнеполитическое положение Дании во время второй мировой войны. // Новая и новейшая история .- Москва, 1967. № 4. С96-107
15. Кан А.С. Исторический наука в современной Финляндии. // Новая и новейшая история. – Москва, 1976. № 1. С 214-218.
16. Кан А.С. Скандинавские страны в 70-е годы.// Новая и новейшая история. – Москва. 1979. - № 3. С 142-155
17. Кан А.С. Швеция глазами русских путишественников 1871-1917 гг. // Новая и новейшая история.- Москва, 1983. - № 4. С 135-145
18. Кан А.С. Советская и постсоветская историческая нордистика-первые итоги. // Россия и Северная Европа : к итогам XIV конференции по изучению Скандинавских стран и Финляндии.- Архангельск ; Москва, 2001.-№ 1. С 120-133.
19. Кан А.С. Сергей Борисович Кан (1896-1960) // Портреты историков : Времья и судьбы / отв.ред. Г.Н.Севостьянов.- Москва, 2004.-Т 4: Новая и новейшая история. – с 228-244.

**Дасрлик ва энциклопедиялардаги мақолалари**

20. Кан А.С. Дания : Исторический очерк (до 1864 г.) // Большая Советская Энциклопедия.- 2-е изд.- Москва, 1952.- Т.13.
21. Кан А.С. Скандинавские страны в XII-XV вв. // Всемирная история.- Москва, 1957.- Т.3. с. 689-694.
22. Кан А.С. Швеция : исторический очерк (до 1800 г.) // Большая Советская Энциклопедия. 2-е изд.- Москва, 1957.- т.47.- с.607-610.
23. Кан А.С. Скандинавские страны в XVI- первой половине XVII в // Всемирная история.- Москва, 1958.- т.4: (1500-1650гг.) / отв.ред. М.М.Смирин.- с.356-371.
24. Кан А.С. Культура Скандинавских народов. // Всемирная история. – Москва, 1958.- т. 5: (1650-1800 гг.) / отв.ред. Я.Я.Зутис.- с. 630-633.
25. Кан А.С. Швеция в XVII-XVIII вв. // Хрестоматия по новой истории: в 3 т. / под ред. А.А.Губера, А.В.Ефимова.- Москва, 1963. Т. 1 : 1640-1815.- с. 328-343.
26. Кан А.С. Скандинавские страны в 1918-1939 гг. // Новейшая история 1918-1939 гг.: учеб.для студентов ист.фак.гос.ун-тов \ гл.ред. И.С.Галкин.- Москва, 1974. С464-478.
27. Кан А.С. Норвегия : исторический очерк (1800-1945 гг.). // Большая Советская Энциклопедия. 3-е изд.- Москва, 1974. –Т. 18. с. 105-109.
28. Кан А.С. Скандинавские страны.// Новейшая история 1939-1973 гг.: учеб.для студентов ист.фак.гос. ун-тов/гл.ред И.С.Галкин.- Москва. 1975. С. 433-444.
29. Кан А.С. Швеция, Норвегия, Дания в 1870-1917 гг. // Новая история : учеб пособие для студентов ист.фак.пед.ин-тов/под.ред. Н.Е.Овчаренко.-Москва, 1976. Ч.2: 1871-1917 гг. С 458-472
30. Кан А.С. Капиталистические страны Северной Европы : (Швеция, Норвегия, Дания, Исландия, Финляндия ) // Всемирная история. – Москва, 1979. – Т. 12: (1950-1960гг.)/отв.ред. Р.Ф. Иванов.- с243-261

31. Александр Сергеевия Кан : автобиография и избранная библиография научных публикации (1949-2009).// Вестник «Баренц-центра» МГПУ.- Мурманск, 2009. № 1. С 104-118

### Тавсия этиладиган интернет сайтлари

32. http://norse.ulver.com
33. http://cyberleninka.ru